

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI

BERDAQ NOMIDAGI QORAQALPOQ
DAVLAT UNIVERSITETI

BAKALAVRIATNING O'ZBEK FILOLOGIYASI
YO'NALISHI UCHUN

O'ZBEK XALQ OG'ZAKI IJODI

fanidan

MA'RUZALAR MATNI



NUKUS 2008

Tuzuvchi: Assistant M.Qurbaniyazov

Taqrizchi: Ajiniyoz nomidagi NDPI o'zbek tili va adabiyoti
kafedrasi mudiri S.Matyakubov

Ma'ruzalar matni Qoraqalpoq Davlat universiteti
O'zbek filologiyasi fakulteti o'zbek filologiyasi kafedrasining
2008 yil 25-avgustdagи yig'ilishida muhokama qilinib
ma'qullangan

Kafedra mudiri: **dots. H.Abdullayev**

I-mavzu: KIRISH: FOL`KLOR VA FOL`KLORSHUNOSLIK.

Reja:

- 1.Fol`klor haqida.
- 2.Fol`klorshunoslikning tarkibiy qismlari.
- Z.Fol`klorning o`ziga xos belgilari.
- 4.Xulosa.

Tayanch atamalar: *folpklor; an`anaviylik; variantlilik; badixaguylik; anonimlik.*

MUAMMOLAR:

1. Fol`klor so`zining lug`aviy va terminologik ma`nolari. Uning tor va keng terminologik ma`nolari: go`zallik qonunlari asosida xalq tomonidan yaratilgan har qanday ijod mahsuli tushunilishi terminining keng ma`nosi, faqat xalq og`zaki poetik ijodinigina anglatishi tor ma`nosi ekanligi.

2. Fol`klorshunoslik fol`klorni o`rganuvchi fan sifatida. Uning boshqa fanlar bilan aloqasi: fol`klorshunoslik va tilshunoslik, adabiyotshunoslik; fol`klorshunoslik va tarix, arxeologiya, etnografiya; fol`klorshunoslik va falsafa, san`atshunoslik.

Fol`klorshunoslikning tarkibiy qismlari:

a) xalq ijodi namunalarini to`plash fol`klorshunoslikning tarkibiy qismi sifatida. Bu bo`limning vazifalari, fol`klor to`plash ishining shakllari to``risida;

b) fol`klor matnshunosligi. Bu sohaning vazifasi: xalq og`zaki poetik ijodi namunalarining turli variantlarini qiyoslash, badiyat, estetik printsiplari asosida tanlash va nashrga tayyorlash hamda nashr etish;

v) fol`klor tadqiqotlari. Bu sohaning o`ziga xosligi, fol`klor o`rganishda boshqa fan va mutaxassisliklar bilan hamkorlik.

Fol`klor xalq o`zaki poetik ijodi, xalq ijodining boshqa turlari – musiqa, raqs, artistlik va boshqalar, bularning o`zaro aloqasi.

Fol`klor va yozma adabiyot, ular orsidagi umumiy jihatlar: har ikkisining ham so`z san`ati ekanligi, har ikkisida ham hayot lavhalarining tasvirlanishi, voqelikning ma`lum bir estetik printsiplarga asoslangan holda badiiy obrazlar orqali ko`rsatilishi, shuningdek, vazifadagi ta`limiylik va tarbiyaviylik, tasviriy vositalar mushtarakligi.

3. Fol`klorning o`ziga xos belgilari: a) fol`klor – o`zaki ijod, o`zakilik fol`klorga xos etakchi belgi ekanligi; uning o`zaki ijod namunalarining tarqalishi va ommalashuvida muhim faktor sanalishi. Badihago`ylik (improvizatsiya) haqida ma`lumot. Fol`klorning o`zgarishlarga uchrashida, badiiy jihatdan takomillashuvida badihago`ylikning roli; ijrochining g`oyaviy niyati va badiha(go`ylik);

b) fol'klor – kollektiv ijodi. Fol'klorda ijodkor (dastlabki) individ-shaxsning asta-sekin umumjamoaga singib ketishi (anonimlik vujudga kelishi), kollektiv ijodi ustivorligning kelib chiqishi va kollektivlik fol'klorning muhim belgilaridan biriga aylanishi;

v) an`anaviylik. Mazmun va shaklda an`anaviylikning namoyon bo`lishi;

g) variantlilik. Variantlilikning: a) etnografiya bilan bo`lanishi- turli uru` va qabilalar dunyoqarashi, yashash va fikrlash tarzi hamda ruhiy dunyosi varintlar kelib chiqishining omili sifatida; b) iqtisodiyot bilan bo`lanishi – ishlab chiqarish va iste`mol variantlilik omili sifatida; v) ijrochi bilan bo`lanishi – ijrochilarning ijtimoiy, siyosiy, falsafiy qarashlaridagi o`zgachaliklar variantlilik omili sifatida;

d) o`zgaruvchanlik – fol'klorning o`ziga xos xususiyatlaridan biriekanligi. O`zgaruvchanlikning fol'klorga xos boshqa xususiyatlar – o`zakilik, kollektivlik, badihago `ylik kabilalar bilan, shuningdek, jamiyat taraqqiyoti bilan bo`lanishi.

e) anonimlik – fol'klor asarining dastlabki yaratuvchisi noma`lum ekanligi.

"Fol'klor" inglizcha so`z bo`lib, uning lu`aviy mahnosи quyidagicha: fol`k-xalq, lore-donishmandlik. Fanda bu so`zning tor va keng terminalogik mahnolari mavjud. Go`zallik qonunlari asosida xalq tomonidan yaratilgan har qanday ijod maxsuli tushunilishi-terminning keng mahnosidir. Bunda xalq sanhati, amaliy sanhat, musiqa sanhati, raqs sanhati, kashtachilik kabi go`zallik qonunlari asosida yaratilgan barcha ijod maxsuli tushuniladi. Atamaning tor mahnosida esa faqat xalq o`zaki poetik ijodi, ya`ni xalq tomonidan yaratilgan o`zaki badiiy so`z sanhati tushuniladi.

Bu atama birinchi marta 1846 yili ingliz olimi Vir`yam Tome tomonidan ilmiy olamga olib kirilgan. O`zbek fol'klorshunoslik ilmida esa, dastlab, atoqli olim Xodi Zarif tomonidan XX asrning 30-yillarida istehmolga kiritilgan. Fol`klorni, ya`ni o`zaki badiiy so`z sanhatini o`rganuvchi fan fol'klorshunoslik deb yuritiladi.

Xalq tomonidan yaratilgan so`z sanhati asarlari boshqa fanlar tomonidan ham o`rganiladi. Masalan, tilshunoslik fol`klorni til nuqtai nazaridan o`rganadi, bu bilan shevalarga xos bo`lgan muxum xususiyatlarni belgilaydi. Ayrim mintaqalarga xos bo`lgan lug`aviy birliklarni aniqlaydi. Tilning tarixiy taraqqiyotini belgilashda ham fol`klor qimmatli manbadir.

Ma`lumki, fol`klorda shu fol`klorni yaratgan halqning urf-odati, turli an`analari, ruhiyati, fikrlash tarzi, falsafasi aks etadi. Shunga muvofiq fol`klorni etnografiya, psixologiya, falsafa kabi qator fanlar ham o`rganadi. Bunda Har bir fan o`z mundarija maydonidan kelib chiqib shu ko`radi. Fol`klorshunoslikni fol`klorga so`z sanhati sifatda qaraydi.

Fol`klorshunoslik so`z sanhatinn o`rganuachi fan sifatda, birinchi navbatda, adabiyotshunoslik va tilshunoslik fanlari bilan zich bo`lanadi. Shuningdek, fol`klorshunoslik, tarix, etnografiya, falsafa, psixologiya, sanhatshunoslik kabilalar bilan ham alokadordir.

Fol`klorshunoslik fan sifatida uch tarkibiy qismdan iborat bo`ladi.

1.Fol`klorshunoslik fan sifatida, dastlab, faoliyatini o`zini o`rganish obhekti bo`lgan o`zaki ijod manbalarini to`plashdan boshlaydi. Bu bo`limning vazifasi o`zaki ijod namunalarini qanday bo`lsa, o`shandayligicha yi`ishdan iboratdir.

Fol`klorshunoslikning ikkinchi tarkibiy qismi fol`klor matnshunosligi deb yuritladi. Bu bo`limning vazifasi to`plangan namunalarni nashr etishdir. Buning uchun esa nashrga taylorlash zarur. Mana shu jarayonda to`plangan namunalarning turli variantlari qiyoslanadi. Badiyot estetik printsiplariga xos xolda tanlanadi va nashr etiladi.

Fol`klorshunoslikning uchinchi tarkibiy qismi fol`klor tadqiqoti deb yuritiladi.

Bu bilimning vazifasi tadqiqotdir. Akademik yo`nalishdagi tadqiqotda fol`klorshunoslik boshqa fanlar bilan hamroxlik qiladi. Masalan, tadqiqotning uslubiy asoslari, fol`klorga sanhat asarlari sifatida qaralishi va shu asosda baxolanishi falsafa hamda sanhatshunoslik estetik printsiplaridan kelib chiqishni taqozo etadi. Badiy qaxramon va u etishgan muhit ruxiyatini bilishga bo`lgan ehtiyoj fol`klorshunoslikni psixologiya bilan hamkorlik qilishga olib keladi. Xullas, fol`klor tadqiqoti analitik ish sifatida fol`klorshunoslikni tarix va etnografiya bilan bo`laydi.

Fol`klor ham, ma`lumki, adabiyot, o`zaki adabiyot, yani so`z sanhati. Uning adabiyotning boshqa ko`rinishi-yozma adabiyot bilan umumiyligi bo`lgan tomonlarini ham yodda tutmoq lozim. Mana shu jihatdan qaraganda ular orasida quyidagi umumiylikni kuzatish mumkin:

- Har ikkisi ham so`z sanhati, tasvir vositasi so`zdir;
- Har ikkisida ham hayot va undagi voqealari tasvirlanadi;
- Voqealar ma`lum bir estetik printsiplarga asoslangan xolda tasvirlanadi;
- Xayot va uning lavxalari badiy obrazlar orqali tasvirlanadi;
- Obraz va obrazlilik umumiyligi mavjud;
- Tasvir vositalari umumiyligi mavjud;
- Adabiy tur umumiyligi mavjud;
- Vazifa mushtarakligi mavjud tahlimiy, tarbiyaviy, estetik vazifalar umumiylidir;

Ayni bir paytda fol`klorning o`ziga xos tomonlari ham bor bo`lib, bu belgilar fuyidagilardan iboratdir:

1. Og`zakilik. Fol`klor og`zaki ijoddir. Bu uning etakchi belgisii sanaladi. Xuddu shu o`zakilik fol`klor namunalarining keng tarqalishi va ommalashuvida muhim faktor sifatida xizmat qiladi.

Fol`klor namunalari paydo bo`lish nuqtai nazaridan qaraganda ham og`zakidir, u o`zaki vujudga keladi, badiy sayqal topishi, qayta-qayta ishlanishi ham o`zaki kechadi: o`izdan o`izga o`tib borish jarayonida Har bir ijod namunasi tobora badiylashadi, polsemantik mahno kasb eta boradi. Bu esa badiy so`z sanhatining asosiy xususiyatlaridan sanaladi.

Og`zakilik natijasida asar matni va `oyasida turli o`zgarishlar bo`lishi ham mumkin. Bu esa, o`z navbatida, fol`klor tur va janrlari xususiyatlarida ham aks etadi. Masalan, Har qanday zamonda fol`klor matndagi eng muhim, davr va tuzum qonun-qoidalariiga oson singib keta oladigan motivlar saklanadi, ana shu davr uchun ahamiyatini yo`qotgan motivlar tushib qoladi. Ana shu jarayonda davr ehtiyojiga mos

bo`lgan davrni ifodalovchi epizodlar fol`lor namunalari matnidan o`in oladi. Natijada fol`lor asarlari turli o`garishlarga uchraydi. Bu o`zgarishlar tufayli u yoki bu janrga mansub asar boshq bir janr sirasiga o`ib koladi, asar xajmi ham yo yiriklashadi yoki kichrayadi. Yiriklashish tufayli kichik asar, ya`ni ertak dostoiga aylanishi mumkin va, aksincha, doston ertakka aylanishi mumkin.

Turli o`zgarishlar kelib chiqishining yana bir omili baxshilarning badixaguyligidir.

Badixa (improvizatsiya) tayyorgarliksiz badiiy asar yaratish. Baxshi tayyor, o`zi o`zlashtirgan fol`klor asarini xikoya qilish - kuylash jarayonida uning matniga o`zgartirishlar kiritishi mumkin. Bunga sabab tomoshabinlar auditoriyasi.

Agar mana shu auditoriya baxshiga ilxom baxsh etib tursa, ilxomlangan baxshi bor ovozda kuylash natijasida o`zidan ham qo`shib yuboradi va natijada asar matnida o`zgarish yuzaga keladi. O`zgaruvchanlikning yana bir omili ijodkorning `oyaviy niyati. Ijrochi - baxshi o`z niyati va `oyasiga moslab, fol`klor asari matnining ayrim o`rinlarini o`zgartirishi mumkin. Umuman olganda, barcha o`zgarishlarning asosida og`zakilik yotadi.

2.Fol`klorning yana bir o`ziga xos belgisi uning kollektiv ijod maxsuli ekanligidir.

Fol`klorda dastlabki ijodkor individ shaxs asta-sekin umumjamoaga singib ketadi va unutiladi. Bunda ham fol`klorning og`zakilik tabiat etakchi rol o`ynaydi. Yana bir jihat shundaki, birinchi ijodkor shaxs tomonidan aytilgan gap sayqal topishga, badiiy ishlanishga muxtoj bo`ladi. Ana shu ishlanish-tufayli fol`klor asari o`zining dastlabki yaratuvchisidan uzoqlashadi. Mana shu omillar tufayli -kollektivlik fol`klorning muxim belgisiga aylanadi.

Z.Fol`klorning navbatdagagi o`ziga xos belgisi uning anhanaviyligida ko`rinadi.

Anhanaviylik vujudga kelishining omili ham o`zakylikdir. Anhanaviylik tufayli badiiy ijod namunalari matnida nisbatan barqaror ifoda yo`llari kathiylashadi. Bu narsa tasvirning poetik vositalarida ham doimiylik-kasb etadi.

Anhanaviylik fol`klor asarlarining mazmun va shakli, kompozitsion tuziliishida namoyon bo`ladi.

4. Variantlilik fol`klorning o`ziga xos belgilardan biridir.

Variantlilik kelib chiqishi etnografiya bilan bo`lanadi. Turli urug`-qabilalar o`zlarining dunyokarashi, yashash va fikrlash tarzi, hamda ruxiy dunyosi bilan o`zaro farqlanadi. Mana shu farqlar turli variantlar kelib chiqishiga olib keladi.

Variantlilikning yana bir omili iqtisodiyot bilan bo`lanadi. Ishlab chiqarish, iste`mol turlichaligi ham variantlar Har xilligini vujudga keltiradi.

Ijrochilarning ijtimoiy, siyosiy va falsafiy karashlaridagi o`zgachaliklar variantlilik vujudga kelishining navbatdagagi omilidir.

5. Fol`klorga xos belgi sifatida o`zgaruvchanlik fol`klorga xos boshqa belgilarning, xususan, o`zakilik, kollektivlik, badixaguyluk kabi xususiyatlarning maxsuli sifatida vujudga keladi. Shuningdek, bunda jamiyat rivojining ham o`rni bor.

6. Anonimlik fol`klorning o`ziga xos belgilardan biridir.

Xullas, 1846 yili ingliz fol`klorshunosi tomonidan fanga atama sifatida olib kirilgan "Fol`klor" so`zi lug`aviy jihatdan xalq va

donishmandlik mahnolarini anglatib, fanda xalq tomonidan yaratilgan sanhat asarlarini ifodalaydi. Bu xaqdagi ilm esa fol`klorshunoslik deb yuritiladi.

Yozma adabiyot bilan umumiyligi tomonlari mavjud bo`lganidek, o`ziga xos xususiyatlari ham mavjuddir.

Nazorat savollari:

1. Fol`klor nima?
2. Fol`klor atamasi kim tomonidan va qachon, fanga olib kirilgan?
3. FolG`klor va yozma adabiyotning umumiyligi tomonlari nimalarda ko`rinadi?
4. O`zakilik deganda nimani tushuniladi?
5. «Kollektiv ijod maxsuli» tushunchasi nimani anglatadi?
6. Ananaviylik nima?
7. Variantlilik nima?
8. O`zgaruvchanlik nima?
9. Anonimlik nima?
10. Fol`klorshunoslik bo`limlari nimalar bilan shug`ullanadi?

Adabiyotlar:

- 1.X.Razzokov, T.Mirzaev, O.Sobirov, K.Imomov. O`zbek xalq o`zaki poetik ijodi. Toshkent,1980.
- 2.T.Mirzaev va boshqalar. O`zbek xalq, og`zaki poetik ijodi. Toshkent,1990.
- Z.N.Xotamov, B.Sarimsakov. Adabiyotshunoslik terminlarining ruscha-o`zbekcha izoxli lu`ati. Toshkent, 1979.

2-mavzu: QADIMGI DAVR QARASHLARI VA FOLKLOR, FOL`KLORNING QADIMIY MANBALARI.

Reja:

1. Inson qarashlari va ibtidoiy tasavvurlar.
2. Animizm.
3. Fetishizm.
4. Totemizm.
5. Ibtidoiy tasavvurlarning fol`klorda ifodalanishi.
6. Antik davr grek olimlari asarlari.
7. "Avesto".
8. "Devonu lug`otit turk".
9. Xulosa.

Tayanch atamalar: animizm;
fetishizm; totemizm.

MUAMMOLAR:

1. *Ibtidoiy odamning tabiat va jamiyat ilk tasavvur va qarashlari; animistik qarash, animizm, fetishizm, totemistik ishonch-e`tiqod, totemizm, bularning o`zaki*

poetik ijod namunalarida aks etishi, «Yoriltosh», «Oq bilakxon», «Yalmo`iz kampir», «Qilich botir», «Cho`loq bo`ri», «Bo`ri qiz», «Bo`ri» ertak va afsonalari.

2. Turon zamni elining qadimgi davr fol`klori manbalari: antik davr yunon olimlari Gerodot, Polien asarlari. «To`maris» va «Shiroq» rivoyatlari qadimiy qahramonlik eposi namunalarini sifatida.

«Avesto». «Avesto» muallifi – Zardo`sht, uning shaxsi, faoliyat sohalari: notiqlik, she`riyat, tarix, etnografiya, falsafa. Uning Vatani haqida ma`lumot, bu haqda jahon olimlarining qarashlari: Sharq va `arb oqimlari. Zardo`shtiylik ruhiy-ma`naviy oqim sifatida; uning vujudga kelish davridagi ijtimoiy-iqtisodiy sharoit, Temur inqilobi davri haqida ma`lumot. Imperiya tipidagi davlatlar vujudga kelishi. Yangi ideologiyaga ehtiyoj.

«Avesto»ga Evropaning munosabati: Pliniy (eradan oldingi III asr), ingliz olimi Jorj Bouje, frantsuz olimi Anketil` Dyupperon, nemis faylasufi Fridrix Nitsshe va boshqalar «Avesto» haqida.

«Avesto» qomusiy asar sifatida. Uning mundarijasi: a) Yasna, b) Yasht, v) Vendidot, g) Visparat. Bular haqida ma`lumot.

«Avesto»da ma`naviyat, madaniyat diniy va ijtimoiy hayotga doir qarashlarning berilishi: meditsina, ekologiya, ayol va farzand munosabatiga doir fikrlar.

Mahmud Qosh`aryning «Devonu lu`otit turk» asari. «Devon»da berilgan fol`klor namunalarini.

Insonning obhektiv olamga, mavjud borliqqa bo`lgan munosabati uning qarashlarida ifodalanadi. Bu qarashlar esa inson tajribalari, bilimi asosida shakllanadi. Bilim, kelib chiqish nuqtai nazaridan ijtimoiy xodisadir, u jamiyat paydo bo`lishi bilan tasavvur va tushunchalar shaklida namoyon bo`ladi. Bu tasavvur va tushunchalarda obhektiv borliq, insonni o`rab turgan muhit aks etadi.

Ijtimoiy xodisa sifatidagi bilimdan tashqari instinct orqali tirik mavjudotga o`tadigan instinctiv bilim ham mavjud bo`lib, u insonlarga ham, hayvonlarga ham bir xilda xosdir. Masalan, Har bir hayvon turi yashash tarzini instinctiv o`zlashtiradi. Instinctiv bilim, odatda, tugma bo`ladi.

Ijtimoiy bilim kundalik tajribalar asosida yi`iladi, kundalik turmush bilimlari, biror tabiiy va ijtimoiy xodisani maxsus o`rganish orqali shakllantiriladi ilmiy bilim. Har qanday xolda ham inson tafakkuri tinimsiz bilimga qarab intiladi, bilimga tomon Harakat qiladi.

Mana shu bilimga bo`liq xolda insonning ijtimoiyiyosiy, falsafiy, axloqiy, ilmiy, diniy hamda badiiy-estetik qarashlari shakllanadi.

Inson qarashlarida uning tabiatga, insonga, jamiyatga turli ijtimoiy Harakat va guruxlar faoliyatiga, tarixiy voqeal-xodisalarga, o`zini o`rab turgan tor va keng muhitga, umuman, butun koinot va uning vujudga kelishga bo`lgan munosabatlari ifodalanadi, anna shu munosabatlar ko`rinadi.

Ma'lumki, ibtidoiy odam o'zini o'rat turgan muhit-tabiat va uning sirlariga ilmiy yondasha olmas edi. Uning yashash tarzi, bor yoki yo'q bo'lishi tabiat va uning marhamatiga, ya'ni odaga beradigan inhom-marhamatiga bo'liq bo'lган. Tabiat esa insonni doim ham avaylay bermas edi, o'z inhomlari Bilan bir xilda siylay bermas edi. Shuning uchun ham turli tabiiy xodisalar-qur'oqchilik, suv toshini, er qimirlashi kabilardan ibtidoiy inson qo'rkar, talvasaga tushar edi. Chunki bu xodisalar inson ko'ziga notabiiy bo'lib ko'ringan va o'z navbatida, vaxiaga tushgan insonni tabiatdagi turli xodisalarga singishiga olib kelgan. Bunga sabab ibtidoiy oadam mavjud barcha narsalarni jonli, ongli, maqsadli deb biladi. (Masalan, jonsiz bo'lsa, er qimirlaydimi?)

Mana shunday qarashlardan qadimgi davrning dunyoqarashi falsafasi sifatida ibtidoiy tasavvurlar-animizm, fetishizm va totemizm paydo bo'lган.

Lotincha «anima» so'zining lu'aviy mahnosи «jon» so'zi ifodalaydigan tushunchaga mos keladi. Bu so'zdan «animizm» atamasi kelib chiqqan bo'lib, unga muvofiq ibtidoiy tasavvurlar majmui tushuniladi.

Animistik dunyoqarash kishilikning badiiy faoliyati, xususan, o'zaki poetik ijodida ham o'z aksini topgan. Jumladan, turkiy xalqlar o'zaki ijodida animistik tushunchalar Bilan bo'liq motiv va syujetlarni ko'rish mumkin. Masalan, «Yoriltosh» ertagida etrak qaxramoni toshga topinadi, yolboradi, «O'ril, yoril, toshlaray», Deya yi'lab qo'shiqdan so'ng esa berkiladi. Bu obrazli ifoda animistik dunyoqarashning o'zaki badiiy ijoddagi namunasidir. Shuningdek, «Qilich botir» ertagida qaxramonning joni uning qilichida ekanligi ham animistik tasavvur Bilan bo'lanadi. Bu tasavvur bo'yicha daryolarda ham, toshda ham, quduqda ham, qamishda ham jon bor. O'zaki badiiy adabiyotda esa ular jonli odamlardek qatnashadilar-gapga tushunadilar. Shuni aloxida tahkidlash kerakki, ko'p xollarda jon kiritib tasvirlangan jonsiz predmetlar ijobiy vazifa bajaradilar. Masalan, "Eriltosh"da tosh ijobiy qaxramon qo'shi'iga-yolborishiga "qulok soladi", ya'ni yoriladi va bekiladi, shu ijobiy qaxramon singlisi (bu-ham ijobiy qaxramon) qo'shi'iga madadkor sifatida javob qaytaradi-yoriladi va bekiladi. Biroq salbiy qaxramon qo'shi'ida kuylangan ishni "bajarmaydi"-yorilmaydi va bekilmaydi. Bu ham animistik dunyoqarash, xalq orzusi, istaklari bilan bo'liqligi, yashash yo'lida topgan xayoliy najoti bilan aloqadorligini ko'rsatadi.

Demak, animizm ibtidoiy odam tushunchasi, jonsiz narsaga jonli deb qarash tushunchasi, shu tushunchalar sistemasidir.

«Fetish» portugalcha so'z bo'lib, "tumor" ma'nosini anglatadi.

Ibtidoiy odam (ko'p xollarda hozirgi odam ham) tumorga turli baxtsizlik va kasalliklardan saqlaydi deb qaragan. Shuning uchun ham tumorni ximoyachi sifatida taqib yurganlar. Shu mahnoda fetishizm fetish sanalgan predmetlarga diniy nuqtai nazaridan signish, turli predmet — ashyolarga kul't (plox) deb qarashdir.

Totemizm esa ishonch-ehtiqliqdan kelib chiqadi. O'zbek urug'larining qadimiylajdodlari dastavval Quyosh, Suv, Olov kabi jonsiz predmetlarga, keyinchalik Ot, Bo'ri, Ilon, It va boshqa hayvonlarga topinib, ularga ehtiqed quygan. Jonsiz va jonli tabiat sirlariga tushunib etmagan ibtidoiy odam ma'lum bir o'simlik yoki hayvonda o'z ximoyachisini ko'rgan. Masalan, Ashina nomli turk uru'laridan birining bayro'ida birining boshi tasvirlangan.

Bu totemistik qarashlar xalq adabiyotida, xususan, afsona va ertaklarda o`z aksini topgan. "Chuloq bo`ri", "Bo`ri qiz" kabi ertaklar syujet totemistik motiv asosiga kurilgan. Xalq o`zaki ijodining boshqa bir namunasi - "afsonada tasvirlanishicha, qadimgi turklar ona bo`ridan va dushman tomonidan kirilgan uru` ichida tirik qolgan o`n yoshli o`g'il boladan tarqagan. Bu bolani ona bo`ri qo`l-oyoqlari qirqilgan xolda topib olgan va uni go`sht berib boqqan. Shundan so`ng to`larning biriga kirib ketgan va u erda o`nta bola tuqqan. Ularning Har biri turk uru`larining asoschilari bo`lgan".

O`zbek xalq dostonlaridagi Boychibor, G`irot kabilar ot kul`ti bilan bog`liq totemlardir. Ot kul`ti otdan foydalanish boshlangan davrlarga to`ri keladi.

Shunday qilib, ibridoiy tasavvur va ehtikodanimizm, fetishizm va totemizm xalq o`zaki badiiy adabiyotiga ko`pgina syujetlar va motivlar bergan.

O`zbek xalq og`zaki poetik ijodiga mansub bo`lgan ko`p janrlarda ibridoiy tasavvurlar izlarini kuzatish mumkin. Masalan, sehrli-fantastik ertaklar syujetida ko`pgina motiv hamda predmetlar xuddi shu tasavvurlarga mosdir. "Sehrli telpak" ertagidagi telpak ibridoiy dunyoqarash maxsuli, chunki uning xususiyatlari aytgan gapga tushunish, jonli mavjudot singari buyirilgan topshiriqlarni bajarishi animistik tasavvurga mos tushadi. Bunday misollar faqat sehrliantastik ertaklarda emas, balki boshqa tur ertaklar tarkibida ham ko`plab uchraydi. Doston, ayniqsa, qahramonlik dostonlari syujet va motivlari ibridoiy tasavvurlar bilan ko`proq bo`lanadi. "Alpomish" qaxramonlik eposidagi Boychibor, `oz, "Malika ayyor" dostonidagi suta va boshqa ko`plab jonivorlar va predmetlar ibridoiy tasavvurlarning fol`klordagi ko`rinishlaridir.

Miflarning vujudga kelishi asosan ibridoiy tasavvurlar bilan bo`lanadi. Masalan, etiologik (kelib chiqish yoki paydo bo`lishini izoxlovchi) miflar bevosita ibridoiy tushunchalar maxsulidir. Xuddi shu miflardan fol`klorning boshqa janrlari ham oziqlangan. Agar etiologik miflarda inson jonli va jonsiz borliq bilan uru`chilik aloqalarida ko`rsatilsa, boshqa janrlarda ham bu xol takrorlanadi. Masalan, o`zbek xalqi tarkibiga kiruvchi uru`lardan biri o`zini bo`ridan tarqagan deb qaraydi, o`zbek fol`klorida esa xuddi shu qarashni ifodalovchi afsona ham mavjud. Bu afsonada bo`ri urug`boshi sifatida ko`rsatiladi.

Fol`klorda keladigan ibridoiy tasavvurlarga mos motivlar xalqning urfatidan ham mustaxkam o`rin olgan. Masalan, uy iloni ko`ringanda, uning yo`liga un yoki sut sepilgan. Chunki rivoyatlarga ko`ra ilon bir vaqtlar chiroyli qiz bo`lgan. Shu o`rinda qiyos uchun bir detal keltirish mumkin: o`zbeklarda uyga kelin kelganda un sepish bilan bo`lanadigan odat hozir ham mavjud. Turkiy xalqlarda bo`ri xomiy ko`rilgani singari itni ham xomiy deb bilish bor.

Olimlar tahkidlashicha dastlab turkiy xalqlar itlarni qo`lga o`rgatganlar. Mana shu mahnoda `uzorlik cho`pon iti o`lganda, kafanlab ko`mgan. Buning sababini cho`ponning o`zi shunday izoxlaydi: u mening davlatboshim edi, arvoxini rozi qilish burchim. Bu apbatta karashi. Ko`ri-nadiki ibridoiy tasavvurlar insoniyat tafakkuriga katta tahsir ko`rsatgan.

Yana shuni ham tahkidlash zarurki. Devonda Ko`ppaka nomli joy bor bo`lib, u erga it qopganlar davo istab boradilar.

Guzorda it kafanlab ko`milgan bo`lsa, Qoraqalpoqistonda muqaddas sanalgan baliq o`lganida, kafanlab ko`milgan. Odamlar buni halok faqat tashqi tomondangina baliq edi, deb javob berishgan.

Totem hayvonlar nomi bilan bog`liq joy nomlari hozirgacha saqlanishi ham bu qarashlarning nison tafakkuridan mustaxkam o`rin olganini ko`rsatadi. Masalan, Xazorasp, Ilonmozor, Baliqli qo`l, Ko`ppak ota, Olmazor vaxokazo. Man shu qarashlarning hammasi fol`klor uchun ko`plab syujet va motivlar berib kelgan.

Xalq og`zaki poetik ijodining ibtidoiy tasavvurlar bilan bog`liq bo`lgan syujet va motivlar asosida yaratilgan namunalari yozuvchi niyati va maqsadiga muvofiq ma`lum bir `oyani ochish uchun yozma adabiyotga ham o`tgani. Yozma adabiyot tarkibida keluvchi animizm, fetishizm, totemizm bilan bo`liq bo`lgan o`zaki ijod namunalari badiiy detal sifatida `oyat katta poetik vazifa bajaradi. Buni butun dunyoning mashhur bo`lgan adiblari ijodida ko`rish va kuzatish mumkin.

Xullas, ibtidoiy tasavvurlar og`zaki ijod - fol`klorga va u orqali yozma adabiyotga, umuman, inson badiiy tafakkuriga doimo o`ziga xos oziq berib kelgan.

Nazorat savollari:

1. Inson qarashlari nimani ifodalaydi?
2. Shaxs va ryryx qarashlari deganda nimalar tushuniladi?
3. Fetishizm nima?
4. Animizm kima?
5. Totenizm nima?
6. O`zbek uru`lari kaysi hayvonlarni homiy deb bilgan?
7. Fol`klorda fetish predmetlar qanday vazifani bajaradi?
8. Totemning fol`klordagi vazifasi.
9. Inson qarashlarini qanday omillar belgilaydi?
10. Ibtidoiy tasavvurlar fol`klor qaysi janrlariga ko`proq oziq bergen?

Adabiyotlar:

1. X.Razzoqov, T.Mirzaev, O.Soborov, K.Imomov. O`zbek xalq. o`zaki poetik ijodi. Toshkent, 1980;
2. T.Mirzaev va boshqalar. O`zbek xalq o`aki poetik ijodi. Toshkent, 1990.
- Z. N.Xatamov, B.Sarimsaqov. Adabiyotshunoslik terminlarining ruscha-o`zbekcha izoxli lu`ati. Toshkent, 1979 y.
4. N.V. Lukina. Predislovie. Mif, predaniya, skazki xantov i mansi. M, 1990.
5. I.Jabarov, G.Dresvyanskaya. Duxi, svyatqe bogi Sredney Azii. Toshkent, 1993.

3-mavzu: O`ZBEK FOLRINING TUR VA JANRLARI. AFSONA. RIVOYAT. MIF.

Reja:

1. Fol'klorni tur va janrlarga bo'lish printsiplari.
2. Afsona.
3. Rivoyat.
4. Mif.
5. Xulosa.

Tayanch atamalar: tur; janr; epik; lirik; dramatik; liro-epik; afsona; rivoyat; mif; xaos; mifologiya; Kalp davri.

MUAMMOLAR:

1. Hayot lavhalarini aks ettirish usuli bo'yicha fol'klor turlari: lirik, epik, dramatik, liro-epik.

2. Fol'klor asarlarining o'ziga xos bo'linishi. Tasnif printsiplari:

I. Urf-odat, mavsum, marosim bilan bo'liqlik asosi: a) aloqador, b) aloqasiz;

II. Hajm asosi: a) katta, b) kichik, v) o'rtacha;

III. Ijrochiga aloqadorlik jihatidan: 1) miqdoriy asos: a) yakka, b) ommaviy;

2) professional asos: a) ommaviy, b) professional (baxshilar, askiyabozlar, masxarabozlar tomonidan aytildigan – ijro etiladigan);

IV. Ijro usuli jihatidan: 1) soz asosi: a) sozli, b) sozsiz; 2) musiqiy asos: a) kuylash, b) hikoya qilish, v) sinkret: ham kuylash, ham hikoya qilish, ham harakatda ko`rsatish;

V. Milliy asos: a) umumbashariy (masalan, ertak), b) milliy-xususiy (masalan, askiya).

3. O'zbek fol'klori janrlari: Afsona, mif va rivoyat, ularning umumiy (epiklik) hamda o'ziga xos xususiyatlari. Afsonaning ichki bo'linishi: qahramonlik, geografik-toponimik afsonalar; urf-odat va tarixiy voqealar bilan bo'liq afsonalar.

4. Kalp davri – mifologik davr haqida qisqacha ma'lumot. Ibtidoiy odamning tabiat va jamiyat haqidagi tasavvurlari mif vujudga kelishining asosi ekanligi. Mif mohiyati (borliqdagi har bir narsaga jonli, ongli, maqsadli deb qarashning ifodalanishi)va belgilari (yaratish, yaralish, evrilish, e'tiqod asosidagi harakatfaoliyat: buyurish-ko`rsatish – ma'lum udumni qo'llashga da'vat: masalan, ma'lum hayvon go'shtini iste'mol uchun buyurish, Gangda cho'milish va h.k.; ta'qiqlash: masalan, ma'lum hayvon (uru'boshi)go'shtini iste'molga buyurmaslik). Mif ibtidoiy jamiyat tafakkurining badiiy in'ikosi sifatida fol'kloring mustaqil janri ekanligi. Mif va mifologiya.

Ma'lumki, badiiy adabiyot hayot lavxalarini aks ettirish usuli bo'yicha ma'lum tur va janrlarga bo'linadi. Fol'klor ham shu asosga ko'ra dastlab to'rt turga ajratiladi: lirik tur, epik tur, dramatik tur, liro-epik tur.

Fol'kloring turlari – janrlari yana o'ziga xos bo'lgan printsiplari asosida ham tasnif qilinadi. Bu tasnif printsiplari quydagilardan iborat:

1. Urf-odat, mavsum, marosim bilan bo'liqlik asosi.

Bunga ko'ra fol'klor asarlari urf-odat, mavsum, marosimlar bilan bo'liq yoki bo'liq bo'lmaydi. Ko'rindaniki, bu asos bo'yicha fol'klor asarlari ikkiga bo'linadi: aloqador, aloqasiz.

2. Hajm asosi.

Ma'lumki fol'klor badiiy so'z san'atidir. Lekin yozma adabiyotga solishtirilsa, fol'kloring hajm bo'yicha o'ziga xosligi kuzatiladi. O'zaki ijoddha katta

asarlar bulishi bilan birgalikda uch so`zdangina iborat tugal asarlar ham mavjud. Shunga ko`ra fol`klor asarlari hajm bo`yicha uchga bo`linadi: katta, o`rtacha, kichik.

3. Ijrochiga aloqadorlik asosi.

Tasnifning bu asosi murakkab bo`lib, u o`z ichiga ikki tushunchani oladi. Bularning birinchisi miqdor bilan bog`lansa, ikkinchisi professionallik bilan bog`lanadi.

Miqdoriy asosga ko`ra fol`klor asarlari yakka va ommaviy xillarga bo`linadi. Ommaviy xil ichidan duet ham ajiratilishi maqsadga muvofiqdir.

Professional asosga ko`ra xalq o`zaki ijodi namunalari ikki toifaga ajratiladi: ommaviy hamda professional. Professional deganda, baxshilar, askiyabozlar, masxarabozlar, qo`irchoqbozlar tomonidan aytlishi – ijro etilishi tushuniladi. Bu ma`noda askiya professional janr sanaladi.

4. Ijro usuli asosi.

Bu asos ham murakkab asosdir. Chunki bunda ham ikki jihat xisobga olinadi. Soz va musiqiylik.

Soz asosga ko`ra fol`klor ikkiga – sozli va sozsiz bo`linadi. Masalan, ertak sozsiz janr, qushiq sozli.

Musiqiy asosga ko`ra ham o`zaki ijod namunalari ikkiga bo`linadi: kuylash va hikoya qilishga xoslangan. Masalan, qushiq, alla, yor-yor-lar kuylashga, ertak, latifalar hikoya qilishga mansub janrlardir. Shunindek, fol`klorda yana shunday janrlar borki, ular ham hikoya qilinadi, ham kuylanadi. Masalan, doston. Bunday janrlar sinkretik janrlardir. Sinkretik janr ham hikoya qilinadi, ham kuylanadi, ham harakatda ko`rsatiladi.

5. Milliy asos.

Fol`klor asrlari bu jihatdan ham ikkiga bo`linadi: Milliy va umumbashariy. Masalan, askiya milliy janr hisoblangani holda ertak umumbashariydir.

Afsona, umuman, xalq o`zaki ijodining, jumladan, o`zbek xalq o`zaki ijodining ham qadimgi namunalaridan sanaladi.

Mahmud Kosh`ariyning «Devon» ida ham bu atamaning izohi mavjud. «Xikoya», «Qissa» tarzida izoxlangan bu atama «o`tmish vokealaridan xabar beruvchi» sifatida ta`riflanish bilan birga «faqat o`tganlar haqida aytlishi shart emas» deb tahkidlanadi.

Afsonaning ijtimoiy mazmuni shundaki, unda ijtimoiyot bilan, jamiyat hayoti bilan bog`liq bo`lgan voqealari hikoya qilinadi. Shunindek, geografik joy nomlari, konkret ko`l, shahar, qishloq, qal`a, saroy kabilarning vujudga kelishi, yo`q bo`lishi haqida ham hikoya qilinadi

Afsonaning o`ziga xos xususiyatlari shundaki, unda tarixiy vokealar xayoliy uydirma shaklida aks etiriladi. Bu ma`noda afsonalarning miflar zaminida vujudga kelganligini ko`rsatadi. Mifologik elementlar bahzi afsonalar syujeti tarkibida ko`proq joy olganligini ham kuzatish mumkin.

Afsona syujetida tarixiy shaxslar, pahlavonlar, qabila boshliqlari zulm, zo`rlik vaadolatsizlikka qarshi qo`yiladi.

Afsonalar tematik, mazmun va xabar berishga asoslanib qo`ydagicha tasnif qilinadi:

1. Xayoliy voqealar va xayoliy qaxromonlar haqidagi afsonalar.

2. Tarixiy voqealari va tarixiy shaxslar haqidagi afsonalar.
3. Jangnoma tipidagi afsonalar.
4. Toponimik afsonalar.

Xayoliy voqealar va xayoliy qahramonlar haqidagi hikoya qiluvchi afsonalarda syujet uydirmalar asosiga kuriladi va shu jihatni bilan mifiklikka yaqin turadilar. «Dev qal'a» afsonasi shu tip afsonaning tipik misolidir. Bu o'rinda shuni tahkidlash zarurki, dev mifologik personaj sanaladi.

Tarixiy voqealari va tarixiy shaxslar xaqidagi afsonalarda esa tarixiylik xayoliy uydirmalar qobi'iga o'rabi xikoya qilinadi.

Bu tip afsonalar shakli va mazmunga ko'ra sehrli – fantastik ertaklarga yaqin turadi. Chunki bu afsonalarda tarixiy shaxs hamda voqealar sehrli ertaklardagidek tasvirlanadi, tavsiflanadi, tarixiylik bir muncha umumiylilik va noaniqlik ifodalaydi.

Sharqda Aleksandr Makedonskiy xaqida yaratilgan afsonalar, «Shohsanam va 'arib», «Xazorasp» kabilalar shu tip afsonalarga kiradi.

«Tumaris», «Shiroq», «Zarina va Odatida», «Guldursun» kabi afsonalar jangnoma tipidagi afsonalardir.

Bu tip afsonalar qahramonlik dostonlariga qin turadi.

Toponimik afsonalar geografik (keng ma'noda) nomlar xaqida xikoya qiluvchi afsonalardir.

Rivoyat hayotiy voqealarni badiiy uydirmalar vositasida realistik Xarakterga ega bo'lgan aloxida turdir. Ularda fantastika hamda ibtidoiy tushunchalar bilan bo'liq bo'lgan belgi, xususiyatlar mavjud emas. Rivoyatlar 'oyaviy mazmun hamda tematik rangba-ranglikka ega bo'lib, tabiat, tarixiy shaxs va tarixiy voqealar bilan bo'liq bo'lgan xodisalar, ijtimoiy hayot va turmish, geografik joy nomlari, shaHar, qishloq, saroy va boshqalarning qurilishi, vayron bo'lGANI xaqida xikoya qiladi. Mazkur xikoyalar u yoki bu voqelik xaqida xabar berish, ayni paytda uni xaqiqat deb tasdiqlash funktsiyasini bajaradi. Rivoyatlarda lutf va nazokat, aql va tadbir, ishq va vafo, yaxshilik va odamiylik kabi xususiyatlar madx etilib, zulm va zo'rlik, haqsizlik va adovat qoralanadi.

Rivoyatlarda tarixiy shaxslar bilan bo'liq voqealar xikoya qilinadi. Bundan tashqari geografik joy nomlari - toponimlar xaqida ham xikoya qilinadi va shunga ko'ra rivoyatlar ikki guruxga ajratiladi: tarixiy shaxslar xaqidagi rivoyatlar, topnomik rivoyatlar.

Birinchi tipga Navoiy, Ulubek, Amir Temur va boshqalar xaqida yaratilgan rivoyatlar kiradi. Ikkinci tipga "Xazorasp" rivoyati kiradi.

Shuni ham tahkidlash zarurki, toponimik Xarakterdag'i afsonalar va rivoyatlarda umumiylilik nisbatan kuchli bo'ladi.

Xullas, o'zbek fol'klori tur va janrlari rangba-rang bo'lib, afsonalar va rivoyatlar eng qadimgi janrlardan sanaladi.

Mif qarashlarini aks ettiruvchi so'z – «hikoya»lardir yoki matnga tushgan davr qarashlardir. Mif so'zining lu'aviy ma'nosi «so'z», «hikoya qilish» demakdir. U kishilik jamiyati tarixiy taraqiyotining Kalp davrida vujudga kelgan. Kalp davri insoniyat tarixinining mifologik davridir.

Ilmiy manbalarda mif atamasining 500 dan ortiq tahrifi qayd qilinadi. Asrimizning 50- yillarda ijod qilgan amerikalik olim I.I. Duglasning fikiricha «mif» atamasining tahriflari son jihatdan uni qo'llaydigan olimlar soniga tengdir.

Mif hozirgi ijtimoiy ongning barcha jihatlarini qamrab oluvchi ilk tasovurlarni aks ettiradi. Unda hozirgi zamon dinlari, fani, adabiyoti, falsafasi hamda ana shu fanlar va sa'natning kurtaklari mavjud bo'ladi. Boshqacha qilib aytganda, mif shularning hammasidir. Dastavval mif ibtidoiy odamning tabiat va jamiyatga bo'lgan munosabati, tabiat va jamiyatga bergen bahosi sifatida vujudga kelgan. Demak, mif ibtidoiy odamning dunyoqarashi, «falsafa»si.

Mifning vujudga kelish davri kalp davri deb yuritiladi. Bu davrda inson o'zi tayyorlamas edi, tabiatning tayyor inhomidan foydalanar edi. Boshqacha aytganda, bu davr yi'imchilik- ovchilik davri edi. Mif vujudga kelishi jihatidan qaralsa, ana shu davrning maxsulidir. U ibtidoiy odamning tabiatga, jamiyatga qarashi xaqidagi dastlabki, tasavvurlari bo'lmish feteshizm, animizm, totemizmning badiiy ifodasi bo'lib shakllangan. Demak, mifni shakllantiruvchi omillar: 1. Har bir jismni jonli, ongli, maqsadli deb qarash.

2. Tabiat, jamiyat, umuman borliq haqida fikr yuritganda, jamoa - uru`chilik munosabatlaridan kelib chiqib fikr yuritish.

Xuddi mana shu jihat- borliqdagi har bir va har qanday narsaga a) jonli,b)ongli,v)maqsadli deb qarash hamda borliq xaqida fikr yuritganda jamoa- uru`chilik munosabatlaridan kelib chiqish mifning moxiyatini tashkil etadi. Uning belgilari a) yo'qdan bor qilish – yaratish, b) bir narsaning boshqa bir narsaga aylanishi- evrilish, v) ehtiqed asosidagi Harakat – faoliyat- buyurish- ko`rsatish, ta`qiqlash kabilardan iboratdir.

MIFLARNING TOIFALANISHI.

1. Etiologik miflar. («sababkor», izohlovchi).

Turli xil tabiiy va madaniy xususiyatlar hamda ijtimoiy obhektlarning kelib chiqishi (vujudga kelishi)ni izohlovchi miflardir. Umuman, bu xususiyat deyarli barcha miflarga xos. Bu tur miflarning o'ziga xos ko'rinishi sifatida kul't miflarni ko`rsatish mumkin. Bu xil miflarda marosim, kul't harakatchiliklari izoxlanadi. Masalan: Kit-eskimoslarda, o'n'iz-yaponlarda qonni tozalash uchun istehmol qilinadi.

2. Kosmogonik miflar. Bu tip miflarda umuman koinotning, uning qismlarining kelib chiqishi, koinot va qismlarining bir butun sistemadagi aloqadorligi xaqida xikoya qilinadi.

Bu o'rinda mifga xos bir xususiyat aloxida ko'zga tashlanadi. Bu-evrilish. Xaosning kosmosga (yo'qlikning borliqqa) aylanishi xuddi shu miflarda etakchi jihat sanaladi. Vertikal uch qismli, gorizontal to'rt qismli kosmogonik tasavvur – koinot tuzilishi borasida –mana shu miflarda beriladi.

Kosmogoniya asosiy unsurlarning ajralishni (o't(olov), suv, er, havo), osmonning erdan ajralishini, arning dunyo okeanidan ajralishini, dunyo to'i, osmon yoritqichlarining o'rashishi, mustaxkamlanishi, keyin landshaft, o'simliklar, hayvonot va insonning yaratilishini ham o'z ichiga oladi.

Dunyo birinchi unsurdan, bir unsurdan (masalan: dunyo tuxumi yoki antropomorf tipidagi ulkan birinchizot, ulkanmaxluq, ulkanjanivordan) paydo bo`lishi mumkinligi tasvirlangan miflar, turli kosmik obhektlar topilishi, xatto ular madaniy qaxramonlar tomonidan o``irlanishi ham mumkinligi tasvirlangan miflar ham shu turga mansubdir.

Antropogonik miflar kosmogenik miflarning bir qismi, bir ko`rinishi bo`lib, unda odam, birinchi odam, uru`boshlarning kelib chiqishi xaqida xikoya qilinadi. Bu miflarda uru` ko`pincha hozirgi tushunchadagi uru` emas, umuman, insoniyatni ifodalaydi. Inson kelib chiqishi turlicha izoxlanadi: totem hayvonlarning evirilishi – insonga aylanishi, boshqa jonvorlarning ajralib chiqishi, takomilga etmagan qandaydir jonvorlarning takomiliga etishuvchi (bu o`z-o`zidan, ichki rivojlanish asosida kechadi yoki xudolar kuchi bilan amalga oshadi), iloxiy kuch, yaratuvchilar tomonidan tuproq, yo`och yoki loydan inson tayyorlash kabilar aks etgan miflar shu xil miflarni tashkil etadi. Ayolning kelib chiqishi ko`p xollarda o`ziga xoslikka ega.

Birinchi odam ayni bir paytda birinchi o`tkinchi hamdir. Oldin mavjud bo`lgan xudolar va ruhlar boqiy edilar. Kosmogenik miflarning quyidagi ko`rinishlari farqlanadi: Kavkabiy miflarda yulduzlar, umuman, sayyoralar xususida hikoya qilinadi.

Arxaik mifologik sistemada yulduzlar, yulduzlar turkumi ko`pincha hayvonlar, bahzan daraxtlar tilida, bahzan esa hayvon ortida iz olib yurgan sayyod tipida tasavvur qilinadi.

Mana shu miflarda qahramonlar osmonga ko`chadilar, yulduzga aylanib qoladilar va aksincha, sinovlarga bardoshsizlari osmondan quviladilar. Shunindek, yulduz va sayyoralar ma`lum xudolarga bo`lab beriladi.

Sayyoralar Harakatining odam taqdiriga tahsiri xaqidagi mifologik tasavvurlar astrologiya uchun oziq bo`lib xizmat qilgan.

(Sayyoralarning, masalan; oyning xomiladagi bolaga tahsiri xaqida gapirilishi kerak.)

Quyoshiy va xiloliy miflar, printsip nuqtai nazaridan qaraganda, kavkabiy mifning konkret ko`rinishi sanaladi.

Bunday miflarda Quyosh va Oy munosabatlari xaqida xikoya qilinadi. Ular: Ota-Ona, Aka-Singil tipida tasavvur qilinadi.

Bir otasi, bir onasi, necha yuz ming bolasi. Oydagi to` xususida xikoya qiluvchi miflar xiloliy miflarning tipik ko`rinishdir.

Totemik miflar.

Odam (uru') guruxlari bilan hayvon va o`simgiliklar orasidagi aloqa xususida fikr yuritiladi. Bu tip miflar asosida shunday tasavvurlar yotadi: ma`lum bir uru` va ma`lum bir hayvon yoki o`simgilik orasida qondoshlik mavjud. Shundan kelib chiqib, bu mif personajlari ham odamlik, ham hayvonlik xususiyatlariiga ega qilib chiziladi.

Taqvim (kalendar) miflari, odatda, yil fasllari, shu fasl bilan bo`langan urf-odat, rasm-rusmlar borasida xikoya qilinadigan miflardir. Bu miflar asosida odamzotning o`troqlashuvi, er bilan bo`lanishi, agrar ilohiyat yotadi.

Qahramonlik miflar ma`lum bir hayot yo`lining muhim daqiqalari xususida hikoya qiladi. Bunda qahramonning tu`ilishi (albatta, mo`jizaviy, masalan; Guro`li), uning uru`doshlari tomonidan yoki raqib kuchlar tomonidan sinalishi (o`ir

sinovlardan o'tkazilishi), o'z juftini izlab kelishi, oilaviy sinovlar, 'ayritabiyy muhijizaviy kuchlar bilan janglari kabi ko`pgina holatlar qamrab olinishi mumkin.

Qahramonlik miflaridagi biografik boshlanma kosmogonik miflardagi kosmik boshlanmaga mos tushadi, farqi kosmogonik miflarda xaos (bo'shliq, yo'qlik) tartiblashuvi, (koinotning tartibli vujudga kelishi) xaqida gap ketsa, qahramonlik miflarida qahramon shaxsining shakllanushi xaqida gapiriladi, uning o'z kuchiga tayangan holda koinot tartibini tutib turish layoqati xaqida gapiriladi.

Qaxramonlik miflaridagi o'ziga xosliklardan biri shundaki, bunda qahramon albatta o'z muxtidan bosh olib ketadi yoki quv'in qilinadi, o'zga yurtlarda kezadi, ko'makchi ruhlar orttiradi va ularning yordamida dushman ruhlarini engadi, bu yo'lida bahzan muvaqqat o'limlardan ham o'tadi. Masalan, mu'jizaviy kuchlar tomonidan yutib yuborilishi, o'lim va qayta tu'lishi kabi xolatlar. Bunday sinovlarni keltirib chiqaruvchilar qahramonning otasi, to'asi yoki bo'lajak qaynota, uru' otasi (doxiysi), osmoniy xudolar bo'ladilar. Qahramonning quv'in qilinishi esa uning hatti – harakatlari bilan, tahqiqlangan yo'lning buzilishiga olib keluvchi harakatlari – masalan, qonni buzish-singil bilan qon aralashuvi, uru'boshi ota xokimiyatiga taqdid solish kabi Harakatlari – bilan bo'lanadi. Bu o'rinda termin tor ma'nosini albatta takidlash joizdir. Qahramon termin sifatida iloh va foni (o'ladigan) odamning avlodи yoki o''li sanaladi.

Qahramonlik miflari qahramonlik eposi, shunindek ertakning muhim manbaidir.

ESXOTOLOGIK MIFLAR.

Bu tip miflar taqvim, (kalendor), davr almashinushi hamda kosmogonik miflarga tayanadi, so'nggi ashylolar, dunyoning oxiri-oxir dunyo xaqida xikoya qiladi. Umuman, kosmogonik miflarga qarama qarshi bo'lgan bu miflar dunyoning emirilishi, masalan, to'fon tufayli yoki olovda koinotning xasga aylanishi xaqidagi hikoyatlardan iboratdir.

Miflarning toifalanishi nisbiy Xarakterga ega. Ba'zi xollarda ularni qathiy chegaralash mumkin bo'lmay qoladi. Bu mifga xos sinkretizmning bir ko'rinishidir.

Xullas, mifologiya nixoyatda qadimiy mafkuraviy mahrifat bo'lib, sinkretik Xarakterga ega: mifda din, falsafa, fan, san`atning boshlan'ich elementlari bir – biriga omuxta bo'ladi.

Musiqa, raqs va so'z aralashuvida amalga oshadigan turli marosimlar bilan mifning aloqadorligida qandaydir yashirin estetika mavjud. Shunindek, mif, marosimlar orqali, sehr, jodu hamda afsun bilan bo'lanadi. Din, paydo bo'lishi nuqtai nazaridan qaraganda ham, mif va marosimlar ba'rida vujudga kelgan, keyinchalik esa mif va marosimlarni o'z ba'rige olgan. Yana shuni ham aytish lozimki, fan, texnika taraqiyoti yuksalgan sharoitda ham mifologiya, mifologik ong mutlaq so'nmaydi, o'tmishtan bir xotiragina bo'lib qolmaydi, balki uning ko`pgina jihatlari ommaviy ong sifatida falsafa, ilmiy bilimlar sirasida yashaydi.

Nazorat savollari:

1. Tur haqida ma'lumot.
2. Janr haqida ma'lumot.
3. O'zbek fol'klorining hajm jihatdan turlari.
4. Ijrochiga munosabat jihatidan turlari.

5. Ijro usuli jihatidan turlari.
6. Soz asosiga ko`ra turlari.
7. Mo`ljallanish asosiga ko`ra turlari.
8. Urf-odatga bo`lanish jihatidan turlari.
9. Mavsum, marosimga bo`lanish jihatidan turlari.
10. Fol`klorning milliy asosga ko`ra turlari.
11. Mif nima?
12. Mif qanday belgilarga ega?
13. Mifda nimalar haqida fikr yuritiladi?
14. Mifologiya qanday fan?
15. Totemik miflar qanday miflar?
16. Mif va fol`klor.
17. Xaos nima?
18. Kalp davri qanday davr?
19. Etiologik va tasmologik miflar qanday miflar?
20. Qahramonlik miflari qanday miflar?

Adabiyotlar:

1. H.Razaqov va boshqalar. O`zbek xalq o`zaki po`tin ijodi. T., 1980 yil.
2. K.Imomov va boshqalar. O`zbek xalq o`zaki po`tin ijodi. T., 1990 yil.
3. N. Xotamov, B.Sarimsaqov. Adabiyotshunoslik terminlarining ruscha-o`zbekcha izohli lu`ati. T., 1979 yil.
4. M.Juraev. Xayolot chechaklari. Ipak yuli afsonalari. T., 1993 y.
5. K.Imomov. O`zbek xalq prozasi. T., 1981 yil.
6. Mifologicheskiy slovar'. M., 1991.

4-mavzu: O`ZBEK XALQ MAQOLLARI.

Reja:

1. Maqollarning vujudga kelishi.
2. Janr xususiyatlari
3. Maqol tematikasi
4. Maqol evolyutsiyasi.
5. Maqol tuzilishi va poetikasi.

Tayanch atamalar: таъмол; таъмол evolyutsiyasi; struktural evolyutsiya; semantik evolyutsiya; таъмол poetikasi; сочма тузилиши; тизма тузилиши.

MUAMMOLAR:

Maqolning vujudga kelishi: 1) kishilarni hayot va hayot voqealarini bevosita kuzatish mahsuli sifatida; 2) kitobiy manbalardan foydalanish; 3) donishmandlar, yozuvchi, olim va davlat arboblari tomonidan aytilgan hikmatli iboralarni imste`molda barqaror qo`llash; 4) o`zga xalqlar fol`kloridan o`tish; 5) o`z poetikasi, semantikasi va strukturasi jihatidan maqolga yaqin boshqa janrlar transformatsiyasi.

Janr xususiyatlari: 1) hukm va ifoda shakli; 2) o`zakilik va anonimlik; 3) borliqqa umumxalq munosabati va ma`lum bir qatlama munosabatining ifodalanishi; 4) `oyaviy-estetik baho ifodalanishi. Maqol tematikasi. Maqol evolutsiyasi: semantik

va struktural evolutsiya. Maqol tuzilishi: sochma va tizma maqollar. Tizma maqollarda vazn va turoq. Maqol poetikasi. Maqol tili: leksik va grammatic o'ziga xoslik.

Ma'lumki, badiiy adabiyotda ham hayot, kishilik jamiyat, jamiyatdagi munosabatlar tadqiq etiladi, hayot qonun-qoidalari, yashash yo'llari ko'rsatiladi, bu esa kishilarning hayot, hayot voqealarini bevosita kuzatishlari natijasidir.

Har bir badiiy asar, jumladan, maqol ham kishilarning hayot, hayot voqealar, xalqning yashash tarzini bevosita kuzatishlari maxsulidir; u yoki bu voke, xolatni yo qo'llash - tasdiqlash yoxud rad etish – inkor qilishdir. Ko'rindiki, maqol uni yaratgan xalqning borliqqa, jamiyatga va nixoyat o'ziga bo'lgan qarashi, munosabatidir.

Maqol vujudga kelishining ikkinchi manbasi kitobdir. Kitoblarda uchrab qoladigan o'ta qisqa va lo'nda hukm ifodalangan jumlalar tez maqollar sirasidan o'rin oladi. Masalan: I. Tilga ehtibosiz- elga ehtiborsiz. 2.Bilmaganni so'rab o'rgangan - olim, orlanib so'ramagan o'ziga zolim.

Shunindek, donishmandlar, yozuvchilar, olimlar, davlat arboblari tomonidan aytilgan xikmatli iboralar ham engil maqolga aylanadi. Bunda o'sha iborani barqaror qo'llash asosiy omil sanaladi, agar mazkur xikmatli ibora xalq tomonidan barqaror qo'llansa, u maqolga aylanadi.

Maqollar vujudga kelishining yana bir yo'li shundan iboratki, bunda ma'lum bir xalq maqoli o'zga bir xalqm maqoli asosida shakllanadi. Bu - o'tish bo'lib bir xalq fol'klori boshqa bir yaqin xalqqa (yashash tarzi, geografik mintaqqa umumiyligi bo'lgan yaqin xalqqa) o'tadi.

O'z poetikasi, semantikasi va strukturasi jihatidan maqolga yaqin bo'lgan boshqa janrlar transformatsiyasi natijasida ham maqol shakllanadi. O'zbek fol'klorida matal hamda topishmoqlar semantik, poetik va struktural jihatdan maqolga yaqin bo'lganliklari tufayli bu janrlar namunalarining maqolga aylanishi oson kechadi. Bunda hajm umumiyligi ham etakchi omil sanaladi. Masalan: Ikki oyoqi bir etikka tiqmoq - matal, ikki oyo'ingni bir etikka tiqma - maqol: Sanamay sakkiz demoq, Temirni qizi`ida bosmoq - matal, Sanamay sakkiz dema, Temirni qizi`ida bos - maqol.

Topishmoq maqolga o'tishi: Birovni suydirar, birovni kuydirar, javob - til. Bu - topishmoq. Suydirgan ham til, kuydirgan ham til- maqol.

Zarga sotilmas,
Zo'rga topilmas-vaqt, topishmoq
Vaqt zarga sotilmas,
Zo'rga topilmas,-maqol

Janr xususiyatlari. Hukm va ifoda shakli maqolning xususiyatini belgilovchi asosiy omillardan sanaladi. Biror predmet, voqea - xodisa haqidagi fikr shaxs yoki guruxda emas, bir butun xalqda umumiyligi bo'ladi, mana shu umumiyligini asosida shakllangan maqolni hamma bir xil qabul etadi, bunda maqolning shakllanishi ham hamma tomonidan bir xilda qabul etiladigan yo'sinda ifodalananadi. Hukm va ifoda shaklidagi umumiyligini maqolni barqaror holga keltiradi va ma'lum ma'noda so'zga

yaqinlashtiradi. Bu - janrning boshqa janrlardan keskin farqlovchi asosiy xususiyatidir.

Borliqqa butun bir xalq munosabatining ifodalanishi janr mustaqilligini belgilaydi. Bahzan bunday munasabat ma'lum bir tabaqa munosabati sifatida bo'lishi ham mumkin. Lekin bunda ham umumxalq munosabati sezilib turadi. Masalan; «boyga boy boqar» yoki «otangni o'ldirganga onangni ber» kabilar.

Maqolda borliqqa 'oyaviy – estetik baho beriladi. Bu jihatdan ham janrning asosiy xususiyatlaridan sanaladi. Xuddi mana shu xususiyat uni so'zdan farqlaydi.

Umuman, fol'klorga xos bo'lgan og'zakilik, anonimlik kabi jihatlar ham janrning asosiy o'ziga xosligini belgilovchi omillardandir.

Maqol tematikasi. Xalq hayotining barcha sohalari – yashash tarzi, mehnati, keng ma'noda, tabiat va jamiyatga munosabati maqolda aks etadi. Shuning uchun ham maqol mavzu jihatdan nihoyatda ken qamrovli bo'ladi. Vatan, vatanparvarlik, mardlik, jasurlik, tu'rilik, kamtarlik, mehnatsevarlik kabi qator mavzular maqol tematikasi tashkil etadi.

Maqol evolyutsiyasi. Ma'lumki, maqollar ko'p ma'noli bo'ladi. Bu ko'p ma'nolilik og'izdan og'izga o'tish jarayonida, ko'p yillar, davrlar o'tishi bilan ro'y beradi. Masalan; «Temirni qizi`ida bos» faqat temir bilan aloqador emas. Bu erda ko'chim mavjud, mana shu ko'chim maqolning ko'p ma'noliligini tahminlaydi. Lekin bu ko'chish birdaniga ro'y bermay, davrlar o'tishi bilan, semantik strukturadagi evolyutsiya bilan aloqadordir. Maqol semantikasida ro'y beradigan evolyutsiya maqol strukturasida ham kechadi. Struktural evolyutsiya quyidagi ko'rinishlarda ro'y beradi:

1. Maqol strukturasidagi gaplarning o'rinni almashuvini:

Kishi olasi ichtin

Yilqi olasi tashtin (DLT)

Mol olasi tishida

Odam olasi ichida. (O'XM)

2. Maqol tarkibidagi bir so'z boshqa so'z bilan almashadi:

Oyoq yugurigi oshga,

O'iz yugurgi boshga (ZM)

Oyoq yugurgi oshga

Til yugurgi boshga (O'XM)

3. Maqol tarkibida qisqarish ro'y beradi:

Boshsiz bo'rk bo'lmas, totsiz turk bo'lmas. (DPT)

Boshsiz bo'rk bo'lmas, totsiz - turk. (O'XM)

Shuningdek, shehr shaklidagi nutqiy tuzilishda bo'lgan maqollararo bo``in miqdorida ham o'zgarishlar bo'ladi. Bularning hammasi maqolning sayqallanishi uchun xizmat qiladi.

Maqol tuzilishi va poetikasi. Maqol nutq shakli bo'yicha nasriy ko'rinda ham bo'ladi, nazmiy ko'rinishda ham bo'ladi. Shunga muvofiq maqolning sochma va tizma turlari mavjud.

Tizma maqollar vazni, asosan, barmoq vazn. Uning turoqlanishi ham, asosan, ikki turoqlidir. Masalan qo'yidagi keltiriladigan ikki maqolning bo``inlar miqdori har xil, lekin turoqlanishi bir xil.

Betashvish bosh qayda,
Mahnatsiz osh qayda.
Daryo suvini bahor toshirar,
Odam qadrini mehnat oshirar.

Keltirilgan maqolning birinchisi olti bo`in, ikkinchisi o`n bo`g`inli. Biroq turoqlanish bir xil, ya`ni misralar ikki turoqqa bo`linadi. Birinchisi - 3-3 tarzida, ikkinchisi,-5-5 tarzida.

Maqol poetikasini belgilovchi omil va vositalar `oyat xilma-xildir. Bulardan biri tovush takrori - alltiratsiya.

Bu san`at bo`yicha maqolni tashkil etuvchi so`zlarda ayni bir tovush takrorlanadi. Masalan: Bo`linganni bo`ri er.

Keltirgan maqolda uchta so`z mavjud, ikkta so`zlar qo`shilmasi. So`zlar qo`shilmasi : bo`ri er-bu qo`shilma gap; bo`linganni er -bu qo`shilma so`z birikmasi.

So`zlar qo`shilmasi orasidagi bu aloqa turi leksik-gramatik aloqa nomi bilan yuritiladi. Maqol jumlasidagi yana ikki so`z orasida mana shunday aloqa mavjud emas. Lekin ular orasida ham fonetik aloqa – tovush ip aloqasi mavjuddir. Mana shu aloqa tufayli jumladagi barcha so`zlar yaxlitlashadi. Bu esa xotirada saqlanishni engillashtiradi. Ko`p maqollar alliteratsiya san`ati asosida yaxlitlashgan.

Takrorga asoslangan poetik figuralardan yana biri qofiyadir. Gorizontal o`rni bo`yicha qofiyaning barcha turlari mavjud. Anaforik qofiyaga misollar:

Birga vafo,	Vatan gadosi,
Mingga vafo.	Kafan gadosi

Misra o`rtा – inforik qofiya:

Mehnatsiz osh qayda,	Yo`jni borday qil,
Betashvish bosh qayda.	Borni bolday qil.

Misra oxiri - epiforik qofiya:

Xalol mehnat - yaxshi odat,
Berur senga saodat.

Tardi aks san`ati bilan ifodalangan qofiya:

Bog` o`zini tog` aylar,
Tog` o`zini bog` aylar.
Vafosizda xayo yo`q,
Hayosizda vafo yo`q.

Qofiyaning tardi aks bilan bo`lanmagan kopulyativ turi:

Ish kuchini elga berma, erga ber,
Jam`armani selga berma, elga ber.
Boy boyga boqar,
Suv soyga oqar.
Rahmat olgan omondir,
La`nat olgan yomondir.

Keltirilgan maqolda ham gorizontal, ham vertikal chiziqda qofiyadoshlik mavjud.

Maqollarda murakkab qofiyaning juft turi ham ko`plab uchraydi:

Puli borlar yo`rg`a - yo`rg`a,

Puli yo`qlar zo`rg`a - zo`rg`a.

Shunidek, tarkibli turi ham ko`plab uchraydi:

O`ynashmagin arbob bilan

Arbob urar har bob bilan.

Maqolda misrani tashkil etuvchi barcha so`zlar orasida ohangdoshlik – pantorim qofiya turi ham mavjud:

Xurmating savlating,

Mehnating davlating.

Vertikal yo`nalish bo`yicha maqol qofiyasi misralararo, shunindek, misra osha ham bo`ladi.

Bog`ni boqsang bog` bo`lar

Botmon dahsar yog` bo`lar,

Boqimsiz bog` tog` bo`lar,

Yurak bag`ring dog` bo`lar.

Misra osha qofiya:

Er qadrini bilmaydi,

Er ekmagan dehqonlar,

El qadrini bilmaydi,

El ko`rmagan nodonlar.

Maqol poetikasida yana bir takror turi - radif ham etakchi o`rin tutadi:

Dono aytsa, el aytgani,

El g`amini eb aytgani.

Maqolning quyma xoliga kelishida, yanada sayqal topishida boshqa poetik vositalar qatorida paralellizm, so`z takrori kabi ko`pgina stilistik figuralarning ham o`rni kattadir.

Xullas, maqol o`z tematikasi, strukturasi, poetik vositalariga ega bo`lgan mustaqil janrdir. U fol`kloring xajm jihatidan kichik janriga mansub.

Nazorat savollari:

1. *Maqolning vujudga kelishi.*
2. *Maqolning janr xususiyatlari.*
3. *Maqolning mavzu maydoni.*
4. *Maqolning nutqiy tuzilishi.*
5. *Maqol evolyutsiyasi.*
6. *Maqol va topishmoq aloqasi xususida.*
7. *Maqolda semantik evolutsiya.*
8. *Maqolning yozma manbai.*
9. *Maqol qofiyasi.*
10. *Maqollarda parallelizm.*

Adabiyotlar:

1. *Razoqov X. va boshqalar. O`zbek xalq poetik ijodi. T.1980 yil.*

2. *Imomov K. va boshqalar O'zbek xalq poetik ijodi.* T., 1990 yil
3. *Sarimsoqov B.Maqollar xaqida. – «O'zbek xalq maqollari»* T., 1978 yil.
4. *Salomov 'Maqol va idiomalar tarjimasi.* T.1961 yil.

5-mavzu: *TOPISHMOQ JANRI.*

Reja:

1. Janrning o`ziga xos xususiyatlari.
2. Topishmoqda jumboqlash asoslari.
3. Topishmoq vazifasi.
4. O`zbek topishmoqlarining mavzu maydoni.
5. Topishmoq aytish qoidalari.
6. Xulosa.

<i>Tayanch</i>	<i>atamalar:</i>
<i>topishmoysi;</i>	<i>jumboqlash;</i>
<i>sha`ar berish.</i>	

MUAMMOLAR:

Topishmoq fol`klorning kichik janri sifatida topishmoqda jumboqlash asoslari: o`xshash belgi asosida (tasdiq predikat), yot belgi asosida (inkor predikat); aralash holat – bir topishmoqda ham tasdiq ham inkor predikat ishtiroki; denotat umumiyligi va uni farqlash (sabzi va shol`om); predmetga xos ko`p belgililik va shunga mos holatda ko`p topishmoqlilik.

Topishmoqning ta`limiy va tarbiyaviy hamda estetik ahamiyati; topishmoqda obrazlilik.

Topishmoqning dastlabki vazifasi: tabu – sir tutish, so`z yordamida yovuz kuchlarni chal`itish. Topishmoq – donolikni sinash, kishi hayotini saqlab qolish vositasi sifatida. Vazifadagi evolutsiya – topishmoq borliqni o`zlashtirish, dunyonи anglash yo`li sifatida: mantiqiy fikr yuritish, idrok va zehnni o`stirishda topishmoqning roli.

Topishmoq aytish va topish qoidalari; «shahar berdim» iborasi.

Topishmoq poetikasi: metafora (istiora), o`xshatish. Topishmoqda nutqiy tuzilish: prozaik, poetik; takror san`ati: tovush, so`z takrori; vazn va qofiya.

Topishmoq fol`klorning kichik janrga mansubdir.

O`zbek xalq og`zaki poetik ijodida milliy poetika qonunlari va printsiplari asosida yaratilgan topishmoqlar talaygina. O`zga xalqlarda bo`lgani singari o`zbek xalq ijodida ham badiiy nutqning qiyoslash, istiora, jonlantirish, sifatlash kabi asosiy ko`rinishlari bir maqsadga – poetik idrok qilishga, voqelikni poetik tasvirlashga bo`ysundirilgan. O`zbek topishmoqlarida o`zbek voqeligi, o`zbek tabiatni ifodalangan. Shuning uchun ham xalq topishmoqlari xalq badiiy asarlarining jippi namunalari sanaladi. Ularda biror narsa yoki voqelikning yashirilgan narsa bilan o`xshash tomonlariga asoslangan -bu narsa o`rnini topishmoq almashtira oladigan ko`chma ifodalar beriladi. Shunday qilib, topishmoq aniq narsa yoki voqelik tushunchasini ongli ravishda yashirishga, sir tutishga asoslangan kichik poetik asaridir.

Shubhasiz qadimiy ko`p asrlik tarixga ega bo`lgan xalq topishmoqlarining ildizlari insoniyat jamiyat taraqqiyotining ilk bosqichlariga borib taqaladi. Qadimiy topishmoqlarning asosida insonning dunyonи bilishga, tabiat sirlarini tushintirishga bo`lgan intilishlari yotadi. Insonning tinib - tinchimas aqli momaqaldiroq, yashin,

yom'ir, yulduzli osmon kabi ko`plab narsa va voqelikni badiiy obrazlarda tasvirlagan. Ravshanki, ongning tu`ilishi tongida insoniyat tabiatni boshqaradigan, jamiyatni Harakatga keltiradigan qonunlarni bilmas edi. Qadimga kishlar ularni o`rab turgan tabiatni ham insondek deb tasovvur qilar, dunyodagi juda ko`p voqealar `ayritabiyy kuchlar irodasi bilan ro`y beradi, deb bilardilar. Barcha `ayritabiyy kuchlar insonga dushman bo`lib, yovuzlik qilishlari mumkin edi. Odamlar bu ruhlardan xalos bo`lish yo`llarini ahtarganlar. Shunday yo`llardan biri jamoa hayotida ro`y beradigan hamma narsani sir tutish, so`z yordamida ko`rinmas kuchlarni chal`itish, aldashdan iborat edi. Ammo asta –sekin topishmoqlar o`zining dastlabki xususiyatlarini, sodda ko`rinishlarini o`zgartirib, o`zgacha Xarakter kasb etgan. O`zbek miflari va ertaklarida ko`pincha topishmoq inson donoligini sinash vositasi bo`lib keladi, uning echimi o`ir damlarda qahramon hayotini saqlab qoladi.

Bora - bora topishmoqlar vazifasi o`zgarib, u ko`proq so`z o`yinining badiiy formasiga aylanadi. Ularning ko`ngilxushlik xususiyatlari quyidagi o`zbek topishmo`ida shunday ifodalangan; O`yin, o`yin,o`yinim, ko`ngil ochar to`yinim. (Topishmoq).

Topishmoqlar hozir ham xalq ijodida ko`ngilxushlik vositasigina emas, balki bolalar idrokini, zexnini o`stirishda o`ziga xos tarbiya maktabi sifatida yashab kelmoqda. Topishmoqchi uni echayotganda, agar u topishmoqning javobini topa olmas, arzimas narsani emas, balki boyta aytib o`tganimizdek, o`z shahrini yoki butun mamlakatini talab qilish xuquqiga ega. Bunday hollarda topishmoqni echa olmagan: «Shahar berdim», ya`ni engildim engildim, deydi. O`zaki ijodning bu «yoqimtoy kichik» janrining tarbiyaviy va didaktik imkoniyatlari g`oyat rang-barangdir. Topishmoqlar xalq ijodida, obratzli so`zga muhabbat uy`otadi, bolalarga estetik zavq ba`ishlab, ularni o`zaki shehriyat dunyosiga olib keladi. O`ziga xos tasviriy san`atning, milliy badiiy usullarning ifodasi bo`lmish bu jajji asarlar o`sib kelayotgan avlodning mahanaviy ehtiyojlariga oziq bo`ladi.

Insonning tabiat xodisalarini kuzatish qobiliyati, hayvanot dunyosining turli vakillarini o`rganish, o`z jismining turli qismlari narsalarga qiyoslash, o`xshash tasavvurlarni qo`sha olish idroki topishmoqlarning tu`ilishida, shuxbasiz, asosiy rol o`ynagan, shuning uchun ham topishmoqlarda eng ko`p qo`llanadigan badiiy usullar-istiora va qiyoslashdir. Ular juda ko`p xollarda topishmoqning asosini tashkil qiladi.

O`zbek xalqi yaratgan topishmoqlar uning ijtimoiy hayoti va turmushining barcha tomonlarini qamrab oladi. Ularning katta qismi dehqon mehnati: dehqonchilik, polizchilik, uy yumushlari bilan bo`liq; topishmoqlar o`z qiziqish doirasiga o`simliklar doirasiga o`simliklar va hayvonot dunyosini, uy xo`jaligiga oid ko`plab narsalarni, xalq odatlari va xislathalarini ham qamrab olgan.

Anhanaviy o`zbek topishmoqlarida voqealar asosan qora uy yoki o`tovlarda kechadi. Ularning saramjonligi, tegrasi to``risida so`z boradi. Yashash joydan tashqaridagi voqealar esa o`zbeklarga bolalikdan tanish bo`lgan erlar-to`lar, cho`llar, vodiylarda bo`lib o`tadi.

O`zbek topishmoqlari ajoyib tasvirlari bilan kishini lol qoldiradi: Bir qozondan qiriq tuya suv ichadi. (Chuchvara).

O`zbek topishmoqlarini ma`no jihatidan o`zaro qiyoslaganda, ularning ayrimlarida yangi zamon izlarini ham ko`rish mumkin. Ular tarixiy bosqichlar tafsirining namunalarini sifatida diqqatga sazovor. Masalan, ushbu topishmoq:

Po`lat qushi uchdi, ketdi,

Bir zum o`tmay Oyga etdi. (Raketa)

Ma`lumki obhektiv borliqdagi har bir predmet boshqa predmetlar bilan mushtarak va xususiy bo`lgan qator muhim va nomuhim belgilarga ega. Masalan, sabzi so`zi orqali bargi yashil (sabz-fors tojikcha yashil) bo`lgan predmetning muhim bir belgisi ifodalansa-da, bu nom uning boshqa xususiyatlarini (o`zganing tuproq ostida bitishi, rangining qizil yoki sariq bo`lishligi, to`yimli ozuqa ekanligi kabilar) o`zida mujassam eta olmaydi. Shu sababdan tilda bir predmetning bir necha nomi (ovqat, taom, oziq, tomoq, xurak, emish, neemat kabi) – sinonimlar yuzaga keladi. Adabiy tur janridan biri xisoblangan topishmoqlar predmetlarning mana shunday serqirra xususiyatlarini ochib berishligi jihatdan ham `oyatda muhimdir.

Qiyoslash insonning dunyoni bilish jarayonida juda katta rol o`ynaydi. Ikki yoki undan ortiq predmetlarni ular o`rtasidagi o`xshashlik yoki farqli tomonlarini aniqlash maqsadi bilan qiyoslash tashqi olamni bilishning eng keng tarqalgan logik yo`llaridan biri bo`lib, inson faoliyatining deyarli barcha sohalarida kuzatiladi.

Shu nuqtai nazardan olib qaraganda, aslida nom topish o`yini bo`lgan topishmoqlarning bilish va nominatsiya nazariyalari bilan aloqadorlik tomonlari yaqqol namoyon bo`ladi. O`ta qisqalik talabi yuzasidan shakllanadigan nomlarda predmetlarning eng muhim belgilari ham to`liq mujassam bo`lmaydi, albatta. Topishmoqlarda esa buning uchun ancha keng imkoniyat mavjud.

Topishmoqlarni boshqacharoq qilib nom topish o`yini deyish ham mumkin. Chunki ularda ikki tomon – jumboqlovchi va jumboqni echuvchi ishtirok etib, tinglovchi jumboqlangan narsaning o`zini emas, uning nomini topishi kerak. Janrning bunday xususiyati ayrim topishmoq tekstlarining o`zidan ham qayd etiladi:

Qavat - qavat ko`ylagi,

Tuproq uning yuragi.

Bahorda ko`m-ko`k bo`lar,

Kuzda shiraga to`lar

U bilan ovqat tahmi

Mazali.Toping nomin. (Piyoz)

Oyo`i yo`q, ammo u,

Uzoqlarga ketadi.

Gap aytib yuborsangiz,

Kimga desang eltadi.

Uchar deb o`ylasangiz ,

Uchishga yo`q qanoti.

Qani o`ylab ko`ring-chi,

Nimadir uning oti? (Xat,radio).

Bir o`rto`im ko`p sodda,

Xisobni bilar yoddan...

Anchagina dumaloq,
 Donasi bor qora,oq
 Qator terilgan simga.
 Kim ekan u xisobchi,
 Ismini o`ylab topchi! (Chut).

Demak, topishmoqlarda gap va tekstlar yordamida obhektiv olamdag'i turli narsa, voqe'a xodisalarni ham boshqacha (pardali)- formada nomlaydi, ham ularning haqiqiy nomlarini topishga undaydi.

Topishmoqlarning nominativ aspekti haqida to'xtalar ekanmiz, ularda butun boshli gap va tekstlar orqali nomlangan denotatlarning muhim va nomuhim belgilari ochib berilishligini tahkidlashimiz lozim. Jumladan, bugungi kunda sabzi xaqida o'nlab topishmoqlar borki, ular orqali bu poliz ekinining bir necha xususiyatlariga ishora qilinadi:

1. Er tagida oltin qoziq.
2. Er tagida oltin qoziq, u hammaga bo`lar oziq.
3. O`zi bir qarich, Saqoli besh qarich.
4. Kelin oyim ichkarida, Soch popugi tashqarida.
5. Qizil qiz er ostida, Sochlari er ustida
6. Darchadan nari, ranglari sari.
7. Iyagi erga qaragan, soqoli osmonga qaragan.
8. Barglari ham yam-yashil, Tusi tilladan asil..
9. Sochlari er ustida, rangi osmon tusida.

Bu obrazli jumlalarda sabzining tusi oltin rangiga yaqinligi, shakl tomonidan qoziqqa, bargining soqolga, sochga o`xshashligi ehtiborga olingan. Oltin sariq tusni ifodalash uchun ko`p ishlatilganligi, qoziq asosan erga qoqilishi, sabzining esa tuproq ostida bitishini ehtiborda tutilib, uning nomi yashiringan. Predmetlarning muhim belgilari bu qadar aniq tasvirlangan topishmoqlarning javobini topish unchalik qiyin bo`lmaydi, albatta.

Bu o'rinda shuni ham aytib o'tish kerakki, topishmoqlarda bir-biriga ko`p jihatdan o`xhash predmetlarning nozik farqli xususiyatlariga jiddiy ehtibor beriladi. Jumladan, shol`om tuproq orasida bitishi, bargining er ustida sabzinikiga o`xhash xolda o'sishi, to'yimli ozuqa ekanligi kabi jihatlari bilan sabziga o`xshaydi. Ammo shol`om haqidagi o'nlab topishmoqlarda bu o'simlikning sabziga o`xshamaydigan farqli jihatlariga ishora qilinadi:

Er tagida mushtay go`sht.
 Er tagida nimchaki tosh.
 Er tagida oltin bosh.
 Er tagida zar kalapush.
 Er tagida qizil qalpoq.
 Er tagida qizil bo`icha.
 Kalta bobom ichkarida,
 Quloqlari tashqarida.
 Yapaloq oyim er tagida,

Quloqlari er ustida.

Ko`rinadiki, sholg`omning mevasi Oltinqoziq emas, mushtay go`sht, nimchaki tosh, oltin bosh, zar kalapush,qizil bo`cha, kalta bobo, yapaloq oyim kabi til birliklari bilan ifodalanadi. Sholg`omning bargi esa soch, soqolga emas, quloqqa o`xhatiladi.

Topishmoqlarda bahzan buning aksi - bir predmet xaqida bir necha topishmoq emas, bir topishmoqning javobi turli erda turlicha bo`lishi ham mumkin. Masalan: Uzun terak,

Ichi kavak.

Topishmo`ning javobi aslida qamishdir. Ammo bahzi joda kuva, bahzan miltiq yoki mo`ri ham deyiladi.

Sariboy akam ichkarida,

Saqollari tashqarida.

Topishmo`ning ham asli javobi sabzidir. Keyinchalik makkajo`xori ham mazkur topishmoqning javobi bo`lib qolgan. Sabzining ham, makkajo`xorining ham rangi sariq: sabzi er tagida o`sса, juxori poyada qavat-qavat po`stlog`i ichida yashiringan xolda o`sadi; sabzining barglari er ustida, juxorining popugi tananing uchidan chiqib turishi tomonlari bilan yuqoridagi topishmoqqa ikkala javob ham mos keladi.

Topishmoqning dastlabki vazifasi sir tutish bilan bog`lanadi, bu so`z yordamida yovuz kuchlarni chalg`itish extiyoji tufayli vujudga kelgan vazifa.

Keyinchalik vazifadagi evolyutsiya quydagilarga olib kelgan:

Topishmoq donolikni sinash vositasi, kishi hayotini saqlab qolish vositasi, borliqni o`zlashtirish, dunyoni anglash yo`llaridan biriga aylanadi. Mantiqiy fikr yuritish, idrok va zehnni o`stirishda ham rol o`ynaydi.

Topishmoqni katta - kichik, erkak-ayollar hamma biladi va topishmoq aytishga barobar qatnashadi. Mana shu topishmoq aytish jarayonida kattalardan kichiklar ko`p topishmoq o`rganadi va hozirjavoblikka odatlanadi.

Topishmoqning javobini topish uchun aytilgan teksti yaxshilab o`ylab, nima ishora etilganini faxmlash, topishmoqning asosiy xususiyati va belgilari qaysi predmetga qaratilganini aniqlab yoki taxminlab topishga intilish kerak bo`ladi. Topishmoqning javobini topa olsa, o`sha onda aytuvchi yoki qatnashuvchilardan birontasi javobining to`ri ekanligini tasdiqlaydi va darxol boshqa bir jumboq o`rtaga tashlanadi. O`yinda qatnashuvchilar topishmoqning javobini topishga qiyalsalar, uning belgisini bilib olish uchun jumboq aytuvchiga «Jonlimi», «Jonsiz», deb so`roqlaydilar. Aytuvchi javobni engillashtirish uchun jumboqqa yashiringan predmetni «Jonli» yoki «Jonsiz» ekanligini aytadi. Topuvchi bu javobdan keyin ham predmetni aniqlay olmasa, aytuvchiga yana boshqa so`roqlar berish mumkin. Masalan,»Qaerda bo`ladi?», »O`zi qanday?», «Qattiqmi, yumshoq» kabi. Olingan javobdagi bu qushimcha xabarga suyanib topuvchilar fikr yuritadilar.demak, qo`shimcha kichkinagina ma`lumot topishmoqning javobini topishga ancha engillik tu`diradi. Agar yashiringan predmetning ayrim xususiyati haqida berilgan so`roqqa javob olgandan keyin ham jumboq echilmasa, uni qo`yuvchi javobini

o`zi aytib berish uchun javob beruvchidan «Shahar» berishni so`raydi. Jumboq javobini ayta olmagan odam «shahar» beradi.

Xullas, topishmoq barcha xalqlar fol`klorida mavjud bo`lgan umuminsoniy janrdir. U o`zining shakli, mazmuni va poetikasiga hamda vazifasiga ega.

Nazorat savollari:

1. *Topishmok nima?*
2. *Topishmokda jumboklash asoslari.*
- 3 *Topishmok vazifasi.*
4. *Topishmok janr xususiyati*
- 5 *Topishmok mavzu maydoni*
6. *Topishmok aytish qoidalari.*
7. *Topishmok vujudga kelishi.*
8. *Topishmok nutq shakli.*
9. *Topishmok ijtimoiyligi.*
10. *Topishmok poetikasi.*

Adabiyotlar:

- 1.X.Razzoqov va boshqalar. O`zbek xolk og`zaki poetik ijodi.T.,1980y
- 2.K.Imomov va boshqalar. O`zbek xolk og`zaki poetik ijodi.T.,1990y
- 3.N.Xotamov. B.Sarimsoqov. Adabiyotshunoslik terminlarining ruscha o`zbekcha izoxli lu`ati.T.,1979
- 4.M.Madraximov. O`zbek topishmaqlarining nominativ aspekti. Diplom ishi. Far`ona,1995.

6-mavzu: ASKIYA, LATIFA VA LOF. XALQ DRAMASI.

Reja:

1. Askiya, uning janr xususiyatlari.
2. Askiyachi, uning bilim va badihaguyligi.
3. Askiya aytish o`rni.
4. Payrov va suhbat askiyalari.
5. Latifaning janr xususiyatlari.
6. Latifada syujet va kompozitsiya.
7. Lof, uning uziga xos xususiyati.
8. «Xalq dramasi» termini haqida.
9. Drama. Xalq dramasining uziga xosligi.
10. Xalq dramasining kurinishlari.

Tayanch atamalar: askiya; payrov; latifa; lof; masxaraboz xalk dramasi; ыизибчи о`заки драмаси; ыицирчоъбоуз фолкlor teatri; bir aktyorlilik, kup aktyorlilik.

MUAMMOLAR:

Askiya janrining o`ziga xos belgilari. Askiya janrining hayotiy asoslari. Unda ijtimoiy masalalarning satirik tarzda ifodalanishi: ayrim illatlarning fosh etilishi. Askiyada improvizatsiyaning roli haqida. So`z o`yini – askiyaning asosiy komponenti sifatida. Askiya teksti va jonli idroki o`rtasidagi farqlar.

Payrov askiyalari haqida ma`lumot. Dehqonchilikka (uzum payrovi, meva payrovi, gul payrovi), hunarmandchilikka (kosiblik payrovi, atlas payrovi), madaniy

hayotga (kitob payrovi, qo'shiq payrovi, futbol payrovi va b.) oid payrovlar. Shingil askiyalar va ularning o'ziga xosligi.

Mashhur askiyachilar haqida ma'lumot. Dehqonboy Shernazarov, Erka Qori Karimov, Yusufjon Shakarjonov, Tursunboy Aminov (Ijroqo'mbuva), Abdulahad Mahsum Qozoqov va boshqalar. Askiyaning hozirgi kundagi rivoji.

So'z o'yinlari. Ularda omonimlarni qo'llashdagi san'atkorlik. So'z o'yinlari va tuyuqlar.

Latifa – xalq o'zaki ijodining keng tarqalgan kichik prozaik janri sifatida. Latifalarning asosiy xususiyatlari. Ularning sinfiyligi, kulgingining ijtimoiy xarakteri. O'zbek latifalarining qadimiyligi. Ularning keyinchalik Nasriddin va Mashrab obrazlari bilan bo`lanishi.

Sharq xalqlari o'zaki ijodidagi Juha (Hind), Mushfiqiy (Tojik), Kamina (Turkman), Ahmad akay (Tatar), Aldar ko'sa (Qozoq) obrazlarining o'zbek fol'kloridagi Nasriddin afandi obrazi bilan munosabati.

O'zbek fol'klorida Nasriddin afandi obrazi. Nasriddin sodda, haqiqatgo'y, hozirjavob, so'zamol, aql-farosat bilan har qanday raqibini enga oladigan xalq donishmandi, quvnoq tabiatli kishi obrazi.

Afandi latifalarining badiiy qimmati. Afandi latifalarining kompozitsion jihatdan ixchamligi, kichik epizodlarda katta hayotiy haqiqatlarning ochib berilishi. Latifalarning til xususiyatlari. «Afandi bilan podsho», «Afandi va qozi», «Afandi va imom» va boshqalar. Yangi latifalarni ommalashtirishda «Mushtum» jurnalining roli.

Xalq dramasi va yozma drama. Xalq dramasining o'ziga xos xususiyatlari: harakat maydoni va uning erkinligi (ko'chma ko'rsatuvlarga mosligi), ijrochilar miqdorining nisbiy barqarorligi; sahna jihози va ijrochi. Kiyim-bosh hamda harakat qurollarining soddaligi; asar tuzilishi va hajmining ixchamligi; syujet bir chiziqligi va uning rivojlanib borish xarakteri. Hayotiy voqealarning real tasviri xalq dramasining asosiy printsipi ekanligi. Xalq dramasida satira, yumorning ustivorligi. Xalq dramasida askiyadan unumli va maqsadli foydalananish.

Xalq dramasining mazmun va shakl jihatdan ko'rinishlari: masxarabozlik, qiziqchilik, qo''irchoqbozlik. Xalq dramalarida ijrochining miqdoriy jihat: biraktyorlilik, ko'paktyorlilik.

Xalq dramasi va miniatyur drama.

Xalq dramasini o'zbek teatr san'atining maydonga kelishi, shakllanishi va taraqqiyotidagi roli.

Mashhur namoyondalar haqida ma'lumot. Yusuf qiziq Shakarjonov, Oxunjon qiziq, Muhiddin Darveshov va boshqalar.

Askiya xalq o'zaki ijodining uziga xos janri bulib, u milliy janr sanaladi. Ijodkorga munosabat jihatidan askiya professional janr xisoblanadi, maxsus tayyorgarlikka ega ijrochilar tomonidan bajariladi. Sozga munosabati buyicha soz ishtiroy etmaydigan janr ijrochilar kamida ikki kishi bulishi shart.

«Askiya» so'zining lugaviy mahnosи utkir zexnli demakdir. Fol'klorshunoslikda bu so'z atama sifatida mustakil janrnii ifodalaydi.

Askiya so'z tovlanishlari, ko'p mahnolilik, mahnodagi kuchimga asoslanadi. Bunda zexn, akl kuchi, zukkolik aloxida ahamiyat kasb etadi. Askiyaning yana bir muxim xususiyati shundaki, bunda hozirjavoblik zarur fazilat sanaladi.

Askiya asosan hajviy mazmunda bo'ladi va shuning uchun ham u kulgi uygotadi.

Askiyaning ijro o'rni erkin: u tuylarda, turli bayramlarda, dam olish uchun kichik gurux va yiginlarda ijro etilaveradi. Hozir ma'lum kasb bayrami kunida ham, yangi yil va navruz kunlarida ham, mustakillik bayramida ham umuman, kulami nuktai nazaridan katta-katta bayramlarda ham askiya bulishi odat, askariy xollarda majburiy dasturdan ham urin olib - anhanaviylik kasb etdi.

Bu janr professional janr sifatida uz ijrochilar oldiga kiyin, murakkab talablarni kuyadi. Birinchi talab shuki, askiyachi Har taraflama bilimli, ma'lumotli bulishi zarur. Askiya obhekti bo'lgan soxaning ikir-chikirigacha bilish lozim. Aks xolda askiyani davom ettira olmay koladi. Demak, birinchi shart ko'p ma'lumotga ega bulish. Keyingisi shuki, mana shu bilim asosida uz fikrini uzata olish sanhatiga ega bulish. Bunda fikr uzatish vositasi bo'lgan til uning turli konuniyatlar va koidalarini bilishi shart. Busiz askiya chikmaydi, busiz askiyachi askiyachi bulolmaydi.

Kurinadiki, askiyada bilim, askiyachining bilimga ega bulishi, badixaguyligi etakchi elementlar sanaladi.

Askiya tematik jihatdan rangba-rang. Mana shu xilma-xillik, anhanaviylik kasb etib, barkarorlikka ega bulsa payrov deb nomlanuvchi turkumlar kelib chikadi.

Askiyaning yana bir turi dialog — uzaro suxbat, aytishuv, tortishuv shaklida bo'ladi. Bunda ham anhanaviylik boshlanma mavjud bo'ladi. Bu boshlanma «Gulmisiz...», «O'xshatdim...» degan so'zlardan iborat bo'ladi. Shuningdek askiyaning «Tutal`», «Rabbiy» shakllari ham mavjud.

Kompozitsion dialog shakliga asoslanilgan askiyalarda anhanaviy boshlanma bor, bu element askiya strukturasidan urin olgan. Lekin suxbatda oldindan izchil syujet chizigi bulmaydi. Shuning uchun ham askiya kancha davom etishi, - nima bilan tugashi ham ma'lum bulmaydi. Bu ham askiya janrining uziga xos bo'lgan xususiyatidir. Bu xususiyat uzining ma'lum tematik doirasi va mazmun chizigiga ega bo'lgan payrov askiyalar uchun ham xosdir. Bu tip askiyalarda mavzu maydonidan chetga chikilmaydi, bu shart, lekin syujet dinamikasi erkendir: kaysi askiyachining maxorati, bilim doirasi keng va katta bulsa, usha askiyachining ijrosi baland chikaberadi. Bahzi xollarda (agar kelib kolsa) nisbatan pastrok askiyalar ham zur «olishi» mumkin.

Askiya mazmuniga ham tarixiylik xosdir. Unda davr aks etadi. Masalan, tarixan boylar ariklari haqida gap ketsa, keyinchalik u barham topadi, chunki arik va kanallar davlat tasarrufidagi obhektlar, sanaladi. Keyingi davrlarda yaratilgan ashula nomlari ilgari askiya predmeti bulolmas edi yoki XIX asr askiyachilari radio, televizor, kino asarlari buyicha payrov yarata olmas edilar.

Askiya mustakil janr sifatida fol'klorning o'zaki drama janriga yakin turadi. Umuman olganda, haqiqatan ham, askiya teatr sanhati bilan boglanadi. Lekin askiyada, birinchidan, muallifning uzi ijrochi, ikkinchidan, bu erda so'z uyini

etakchilik kiladi, uchinchidan, ijrochilar ortasidagi «rakiblik» musobaka Xarakterida bo`ladi. Ana shu va boshqa jihatlar uni og`zaki dramadan farklaydi.

Askiyada sanhat darajasiga kutarilgan so`z uyini, so`z kullash jihatidan karalganda, tuyukdagidan birmuncha fark kiladi. Fark shundaki, askiyada doim kuchimga moyillik seziladi.

Latifa xalq o`zaki poetik ijodining keng tarkalgan ommaviy janri xisoblanadi. Xikoya kilishga muljallangan bu janr sozsiz, umumbashariy Xarakterga ega.

Askiya mazmunida sinfiy karama-qarshilik nisbatan kuchlirok seziladi. Aslida latifaning keng yoyilishi va ommaviylik kasb etishi unda ko`p xollarda sinfiy karama-qarshilik yoritilishi bilan boglanadi. Shuning uchun ham latifada satira va humor ustivor xususiyat sanaladi.

Latifaning uziga xos yana bir xususiyati shundaki, unda echim uta kuchli va kutarinki bo`ladi. Bu jihat esa syujet va kul`minatsiyani asar oxirigacha suradi.

Latifada ham nutkning dialog shakli faol kullanadi.

Latifa mazmunida donishmandlik, xalqona soddalik, zulm vaadolatsizlikka qarshi, xudbinlik va manmanlik, kattazanglikka qarshi, zurlikka qarshi motivlar etakchilik kiladi: nodonlik, kaltafaxmlik, uzini ko`rsatish kabi illatlar ustidan kulinadi.

O`zbek latifalarining qahramoni Nasriddin afandidir. Nasriddin latifalarning yagona qahramoni bo`lganligidan uning xislatlari ham bir muncha kengrok maydonda kuzga tashlanadi. Bu maydonlar bir-biriga mos tushmaydi. Masalan, Nasriddin bir urinda uta aklli, hozirjavob, zexnli kishi sifatida tasvirlansa, boshqa urinda soddaligi keragidan ortik ya`ni gul, kallavarang kilib tasvirlanadi. Latifalarda xikoya kilinishicha afandi kamonda otish buyicha podshox bilan musobakalashadi. Unda birinchi va ikkinchi otishda nishonni urolmagan afandi birinchisini podshoxga qarab, «sizning otishingiz podshoxi olam», deydi. Uchinchisi nogaxon nishonga tegsa, «bu Mulla Nasriddinning otishi, taksiri olam» deydi Bunda Nasriddin afandining topkirligi, uddaburonligi tasvirlangan bulsa, kuyidagi latifada uning gulligi tasvirlanadi. Latifa mazmuni kuyidagicha: Nasriddin bozorga mol olib boradi. Dallol uning molini obdon maktaydi. Buni dallol ogzidan eshitgan afandi molni sotmaydi.

Yana bir misol: Afandi bolalarga yongok sotilayotganini so`zlaydi. Uni uzi tukigan, bu — yolgon. Lekin bolalarning ko`plashib yongok «tomon»ga yugurishganini kurib, afandinig uzi ham bolalarning ortidan yuguradi.

Har ikki xolda ham afandi xalq vakili sifatida koladi. Xalq orasida esa istalgan toifadagi odamlarni uchratish mumkin.

Latifalar tematik jihatdan juda xilma-xildir. Lekin ularning barchasida, tugrirogi, asosiy kismida, kompozitsiya ixcham konflikt asosiga qo`yiladi. Konfiliqt satirik va humoristik planda bo`ladi. Odadta satirik latifalarga extiyoj, jamiyat extiyoji ko`prok bo`lganidan shu tip latifalar ko`prok. Bu latifalar ijtimoiy-siyosiy vokealarni sinfiy nuktai nazardan yoritadi.

Lof ham xalq o`zaki poetik ijodining mustakil janri xisoblanadi. Mikdoriy jihatdan ikki ijrochi tomonidan ruyobga chikadigan bu janr dialog nutk janridan iborat bo`ladi, sozsiz, biror mavsum va marosim bilan boglanmaydi.

Lofning asosiy poetik unsuri mubolagadir. Ana shu mahnoda lof aloxida yashashdan tashkari yirikrok boshqa bir badiiy asar tarkibiga ham oson singadi va bu bilan poetik detal sifatida muxim vazifa bajaradi. Loflar ko'prok ertak, doston tarkibida keladi, bunda ko'pincha afandining uzi lofchi sifatida katnashadi.

Lofning ijro usuli va mazmuni orasida doimo karama-qarshilik mavjud bo'ladi: mazmun mantikka zid, unda uta mubolagali, bunday bulishi mumkin emas, lekin lofchi bunga xech qanday xayratsiz, kunda eshitiladigan, aytadigan gapi sifatida karaydi. Bosik va uz gapining - lofning mazmuniga ehtiborsizdek so'zlaydi.

Lof predmeti asosan bir yoki ikkitadan ortmaydi: unda yo choy haqida yoki osh haqida gap ketadi, shuningdek, ikki predmetli bo'lganda Har ikki predmet uzaro qiyoslanadi, albatta, qiyos mubolagali bo'ladi.

Lof syujetini jihatidan dinamik syujetdir, u tez rivojlanadi, doimo kulminatsiya tomon siljiydi va shu kulminatsion nuktada yakunlanadi.

Shunday kilib, askiya, latifa hamda lof og'zaki poetik ijodning kichik janriga mansub bulib, aloxidalikka ega bo'lgan uziga xos xususiyatlarni jamlagan mustakil janrlardan biridir.

Xalq dramasi» atama sifatida adabiyotshunoslik fanida ikki mahnoni anglatadi:

1. Xalq manfaatlari, intilishlari, orzu-istaklari va ruxiy ma'naviy dunyosini aks ettirgan xalqka xizmat kiladigan Har bir dramatik asar xalq dramasi deyiladi. Bunda asar `oyasi etakchi mezon sifatida keladi;

2. Xalq o'zaki poetik ijodining mustakil janri. «Og'zaki drama» hamda «Xalq dramasi» atamalari tushuncha anglatish jihatdan tengdirlar. «Fol'klor teatr» atamasi esa yukoridagi atamalardan kelib chikadigan tushuncha ostidagi dramatik sanhatning realizatsiyasi sanaladi. Boshqacha aytganda, xalq tomonidan yaratilgan dramatik asarni ko'rsatib, spektakllashgan xoldagi namoishi, shu namoish etishda katnashadigan barcha vositalar kushilib fol'klor teatrini vujudga keltiradi. Demak, fol'klor teatrining asosida o'zaki drama yotadi.

Drama «Harakat» mahnosini anglatadi. Bu so'zning lug'aviy ma'nosini, terminologik ma'nosini adabiy turni anglatishidir. Tragediya (echki va qo'shiq), komediya (xushchakchak olomon va qo'shiq) dramaning kurinishlari. Xalq dramasi ham janr, lekin u yozma dramadan uzining kator xususiyatlari bilan farklanadi.

Xalq dramasi umumbashariy janr bulib, u dunyoning barcha xalqlarida bor. Bu janr sinkretik janr, unda so'z ijro usuli jihatidan kuy (musikiylik), Harakat omuxta bo'ladi. Mazmuniy yunalishi jihatidan bu tip asarlar satirik va humoristik moxiyatni aks ettiradi. Muljallanishi so'z va Harakatlar orqali saxnada ko'rsatishga muljallangan bo'ladi. Yana bir muljallanish jihatdan esa ham kattalarga, ham kichiklarga muljallangan bo'ladi. Masxaraboz hamda kizikchilar tomonidan yaratilgan saxna asarlari kattalarga ham, kichiklarga ham muljallangan. Kugirchokbozlar asarlari kichiklarga muljallangan bo'ladi. Bahzi masxarabozlar va kizikchilar asarlari ham bolalarga muljallangan bulishi ham mumkin. Xalq dramasining uziga xos xususiyatlaridan biri, unda Harakat maydonining erkinligidir. Bu janr uchun yozma dramadagi singari maxsus jixozlangan saxna ko'p darajada dekorativ predmetlar shart emas. U kuchma ko'rsatuvga muljallangan bo'ladi. Ijrochilar mikdorida ham nisbiy barkarorlikka ega bo'ladi. Yukorida aytilganidek,

saxna jixozlari nixoyatda sodda, Harakat kurollari ham sodda bo`ladi. Ijrochilar xalqdan chikkan tugma «aktyor»lardir. Ular maxsus tayyorlov mакtablarida emas, hayotning uzidan tahlim oladilar. Shunga muvofik ularning kiyim-boshlari ham sodda bo`ladi; bu dramatik asarning tuzilishi kompozitsion nuktai-nazardan sodda, xajmi esa ixcham bo`ladi; syujetda murakkablik bulmaydi; bu asosan bir chizikli bo`ladi. Uning dinamikasi ham uziga xos bulib tez rivojlanib boradi.

Xalq dramasi mazmun va shakl jihatdan turli kurinishlarga ega. Bu kuyidagilar: masxarabozlik, kizikchilik, kugirchokbozlik.

Har uchchala kurinish ham bir nuktada umumiydirlar. Har uchchalasida ham so`zlanadi, Har uchhalasida ham Harakat mavjud, Har uchchalasida ham ijrochi bir (aktyorlilik) va birdan ortik (ko`p aktyorlilik) bo`ladi. Shuningdek, ularning fakat uzlarigagina xos jihatlari ham mavjud: masxaraboz uziga xos kiyimlardan foydalanishi mumkin, kugirchokbozda bu narsa shart emas. Kizikchilarda kizikchilikda badixa etakchi rol uynaydi, masxarabozda esa bu jihat etakchi jihat sanalmaydi.

Xalq o`zaki dramasining yaratuvchilari — masxaraboz va kizikchilar tugma hayotdan tahlim olgan ijodkorlar sifatida sanhatining boshqa turlaridan ham yaxshigina xabardor bo`ladilar. Masalan, yogoch oyokda uynadigan rakkos fakat rakkos emas, u yaxshigina so`zamol, hozirjavob so`z ustasi ham bo`lgan; masxaraboz va masxarabozlikdan tashkari ko`pgina mashklarini xususan akrobatik mashklarini ham erkin bajargan. Kizikchi esa raks sanhatini, askiya, qo`sish aytish sanhatini ko`p xollarda mukammal uzashtirgan. Shu mahnoda kuyidagi faktlarni keltirish urinlidir. Masalan, Juraxon Sultonov, Mahmurjon Uzokov, Rasulkori Mamadaliev kabi xofizlar askiyachilik bobida mashxur bo`lganlar. Lekin ular asosan xofizlik bobida kolganlar. Yusufjon Shakarjonov esa doira chalish, qo`sish aytish, ayniksa raks sanhatini yaxshigina uzashtirgan. Lekin u Yusufjon xofiz emas, Yusufjon kizik nomi bilan mashxur bo`lgan. Chunki u eng avvalo aktyor, kizikchi, latifaguy, so`zni Harakatga kushadigan aktyor edi.

Har qanday xolda uni ham xalq dramasida asosiy figura ijrochilarining uzlaridir. Chunki professional dramada, drama spektakl muallifi boshqa — rejissiyor, saxnani bezovchi, aktyorlarni qiyofalantirovchilar, yoruglik beruvchilar kabi kator mutaxasislar ishtiroti mavjud. Xalq dramasini yaratuvchilar esa uzlari taglama, ya`ni asar matnini yaratadilar, uzlari «saxnalashtiradilar», ya`ni rejissiyorlik kiladilar, uzlari uynaydilar — ijob etadilar. Mana shu ishlarni bajarish jarayonida bu ijrochilar kizikchi, masxaraboz va kugirchokbozga ajraladilar. Har uchchala ijodkor ham uzini uzi tayyorlaydi. Masalan, masxaraboz alovida uziga xos kiyimni uziga tanlaydi uzi tayyorlaydi uzlarini olachipor kilib buyash lozim bulsa bu ishni uzi bajaradi, ya`ni uziga uzi grimchilik kiladi. Bahzi xollarda xalq dramasi yaratuvchilari uzaricha turli «gastrol»larga chikkan. Masalan tuylarga, sayllarga. Bunday vaktlarga qandaydir tashkilotchi boshlikka extiyoj sezganlar. Shunda ularga ham tashkilotchilik kila oladigan ham shu sanhatdan xabardor bir kishi raxbarlik kilgan. Goxida u uz guruxiga yul-yurik ko`rsatib, rejissiyorlik ham kilgan. Xalq dramasi ijrochilarining faoliyat maydoni ham kengdir. Masalan, birgina taklidchilikning uzi ham keng maydonli faoliyat sanaladi: hayvonlar, kushlar, odamlar to texnika vositalari sunhiy tovushlarga taklid kilinadi. Odamlarning uzariga ham faoliyat soxasiga ham taklid

kilinadi. Masalan, sanhatkor shaxsiga ham, uning sanhatiga ham taklid mavjud. Masalan mashxur xofizlar ovoziga qo'shiq kuylash sanhatiga ham taklid kilinadi: Tavakkal Kodirov, Olmaxon Xayitovalar ijrosiga taklidlar mavjud; mashxur aktyorlar sanhatiga taklid kilinadi: Nabi Raximov, Hamza Umarov, Soib Xujaevlar ijrosiga taklid mavjud. Bahzi odamlar yurishi, Harakatiga taklid kilinadi. Hayvonlarning ham ovozlariga, yurish kabi xatti-Harakatlariga taklid kilinadi. Masalan, ayikning yurishiga, kuyonning yugirishiga va xokazo.

Pantamimo ana shu taklidlardan kelib chikib shakllangan. Xalq dramasi yaratuvchilarining tugma deyilishiga sabab, ular uz yaratuvchilik va ijrochilik maxoratini maxsus ukuv yurtlarida emas, bevosita hayotning uzida olganliklaridadir.

Ma'lumki, XX asrning boshlarida yaratilgan yozma dramatik asarlarda xotinlar roli erkaklar tomonidan bajarilgan. Bu albatta, o'zbek hayoti, o'zbeklarga mansub bo'lgan diniy ehtikod mafkurasi bilan boglanadi. Mana shu mahnoda xalq dramasida ham ayollar roli erkaklar tomonidan ijro etilgan. Shuningdek, ayollar dunyosining ham uz teatrлari bo'lgan. Ayollar teatri mazmun jihatdan erkaklar tomonidan yaratilgan. Xalq dramasi qanday bulsa, shunday bo'lgan. Fark shundaki, bu erda erkaklar roli ayollar tomonidan bajarilgan. Tomosha o'rni erkin bulmagan. U odatda uy ichida, kuzdan yirok bo'lgan pana joylarda ijro etilgan.

Xalq dramasi yozma adabiyotdagi drama janri uchun zamin bulib, xizmat kilgan. O'zbek teatr sanhati vujudga kelishi, shakllanishi va tarakqiyotida ham xalq dramasi katta rol uynagan. Ayniksa, miniatyur teatr sanhati asosida xalq dramasi yotadi.

Agar xalq dramasi bilan o'zbek miniatyur teatri (hozir hamma biladigan nixoyatda ommalashib ketgan televizion minatyura teatri) takkoslansa, kuyidagi umumiylilar kuzatiladi: Har ikkisi ham syujet bir chizikligiga ega; Har ikkisida ham hajviy jihat ustivor sanaladi; Har ikkisi ham shakl va mazmun ixchamligiga asoslanadi; Har ikkisida ham vokea dinamikasi bir xil kechadi — tez rivojlanadi; hajviylikka asoslanib, Har ikkisi ham jamiyatdagi illatlarni fosh kiladi.

Xalq dramasining yirik namoyandalari sifatida Yusufjon kizik Shakarjonov, Oxun kizik, Muxiddin Darveshovlarni ko'rsatish mumkin. Bu sanhatning hozirgi vakillari katoriga juda ko'plab yoshlар kelib kushildi.

Oltiariklik Abdulla kizik, Mirzabek Xolmedov, Xojiboy Tojiboev, Obid Asomov ana shular jumlasidandir. Bu sanhat rivojida televizion minatyuralar teatri xodimlarining o'rnini alovida tahkidlash zarur. O'zbekiston xalq artistlari Ergash Karimov, Roza Karimova, Xusan Sharipov, Baxtiyor Ixtiyorov va yana ko'plab teatr arboblari nomlarini keltirish mumkin.

Respublika mikyosida uzining alovida o'rniga ega bo'lgan Sutakuzilar bu sanhatning yanada rivojlanishi uchun uzlарining juda katta xissalarini kushib kelmokdalar.

Xullas, Har bir xalq dramasi shu xalq hayotining kuzgusidir. Unda shu xalq urf-odatlari, yashash tarzi, psixologiyasi, karashlari aks etadi. Xalq dramasining yana bir jihat, u xalqning sanhatkorlik darajasini ham ko'rsatadi.

Nazorat savollari:

1. Askiya nima?

2. Askiyada badihaning o`rni.
3. Payrov askiyalari.
4. Latifa, uning ijtimoiyligi.
5. Lof nima?
6. Drama nima?
7. Dramaning qanday turlari bor?
8. Xalq dramasi va yozma dramaning umumiylarini.
9. Xalq dramasining uziga xosligi.
10. Xalq dramasining evolyutsiyasi.
11. Xalq dramasining kurinislari.
12. Xalq dramasining ishtirokchiga munosabati.
13. Xalq dramasining ijro usuli.
14. Xalq dramasining ijtimoiyligi.
15. Xalq dramasi ishtirokchilari haqida.

Adabiyotlar:

1. X. Razzokov, T. Mirzaev, O. Sobirov, K. Imomov. O`zbek xalq o`zaki poetik ijodi. Toshkent, 1980.
2. T. Mirzaev va boshqalar. O`zbek xalq o`zaki poetik ijodi. Toshkent, 1980.
3. N. Xatamov, B. Sarimsokov. Adabiyotshunoslik terminlarining ruscha-o`zbekcha lugati. Toshkent, 1979.

7-mavzu: XALQ QO'SHIKLARI.

Reja:

1. Qo'shiq haqida ma'lumot.
2. Qo'shiq turlari
3. Qo'shiq poetikasi

Tayanch atamalar: ыицшибы; улан;yor-yor; marsiya; alla; lapar; duet.

MUAMMOLAR: Qo'shiq janri haqida ma'lumot. Qo'shiq janrining ommaviyligi va uning omillari.

Ashula va qo'shiq, ularning umumiy va xususiy jihatlari.

Xalq qo'shiqlarining tasnif asoslari: urf-odat, mavsum, marosim bilan bo'liqlik asosi: bo'liq emas, bo'liq; ijro usuli: ijrochiga miqdoriy munosabat: yakka, guruh, duet – ikkilik; ijrochining professionalliligiga munosabat: mehnat qo'shiqlari, tarixiy va ishq-muhabbat hamda vafo-sadoqat maavzusidagi qo'shiqlar. Voqklikni aks ettirish va unga munosabat jihatdan xalq qo'shiqlari: lirik, liro-erik qo'shiqlar. Terma.

Qo'shiqda xalq dunyoqarashi, psixologiyasi, estetik did va tafakkurining ifodalaniishi: (o'lan, lapar, yor-yor, marsiya, alla, motam yor-yorlari).

Qo'shiq poetikasi: parallelizm, ritm, vazn va turoq, qofiya hamda tasvir vositalari.

Qo'shiqning ma'rifiy-tarbiyaviy ahamiyati.

Qo'shiq xalq o'zaki ijodining mustakil janri sanaladi. O'zbek xalq qo'shiqlarini tadkik etgan fol'klorshunos olim Muzayana Alaviya aniklashicha «qo'shiq termini bir zamonlar shehr mahnosini ifodalagan va o'zbeklarda xalq poetikasi shu termin bilan atalgan va umumiylashma termin sifatida ishlatilgan. Qo'shiqlarning bunday keng mahnosи xalq urtasida hozirgacha saklanib kolgan... Keng mahnodan boshqa uning bir turi kichik formada yaratilgan va kuylab aytildigan asar bo'lgan».

Xalq qo'shiqlarining professional qo'shiqlar bilan umumiy jihatlari bo'lgani kabi uziga xos xususiy tomonlari ham mavjud. U eng avvalo ularning yaratilishida

kurinadi. Bu jihatdan xalq qo'shiqlarida so'z muallifi ham, kuy muallifi ham xalq, yakka bir shaxs emas: xalq qo'shiqlari daslab qo'shiq sifatida dunyoga keladi. Yozma adabiyot so'zlariga asoslanadigan qo'shiqda avval so'z sung u ohangga solinadi.

Qo'shiq o'rni umuman olganda erkendir: u tuy, turli marosimlarda aytishidan tashkari bevosita mexnat jarayonida, chupon uz otarini kuchirish paytida, aravakash - shofyor yulda ish bajarayotganda, traktorchi er xaydayotgan yoki ekinlarga ishlov berayotgan asnoda qo'shiq kuylayveradi. qo'shiq kathiy takiklanadigan urinlar ham mavjud. Ovchi bevosita ov asnosida, Harbiy razvedkachi pistirmada mutlako qo'shiq kuylamaydi.

Qo'shiq so'z sifatida Maxmud koshgariyning «Devoni lug'otit turk», Yusuf Xos Hojibning «Qutadg'u bilig», Zamaxshariy, Bobur kabi allomalar asarlarida ham uchraydi. Bu so'zning lugaviy mahnosи izoxlanganda bir umumiylig mavjud. qo'shiq ohang bilan kuylanadigan shehr mahnosini bildiradi. Shuningdek qo'shiqning aloxida turlarini ifodalovchi ulan, chinka kabi so'zlar qo'shiq so'zi sinonimlari sifatida ham beriladi. Maxmud koshgariyning «Devon»ida kasida ham qo'shiq izoxi sifatida ko'rsatilgan. Bu ham qo'shiqning bir turi sanaladi. qahramonning ko'rsatgan mardliklari, botirliklari vokeasi epik, liro-epik planda kuylanadigan qo'shiqlar kasida mahnosiga mos tushadi.

Xalq poetikasining umuman xalq o'zaki ijodining eng kadimgi janri sanalgan qo'shiqning lirik, epik, liro-epik turlari mavjud.

Yigi liro-epik qo'shiq turi sanaladi. Unda ma'lum vokea aytildi. Ana shu vokeaga xissiy munosabat ham bildiradi. qahramonlik qo'shiqlari esa epik xalq qo'shiqlari sanaladi. Ularda qahramonlar ko'rsatgan jasorat vokea asosida kuylanadi. Lirik qo'shiqlar ishk, vafo, sadokat tuygularini ifodalovchi qo'shiqlardir. Xalq qo'shiqlari mavsum, marosim, mexnat qo'shiqlari kabi turlarga ham ajratiladi.

Mavsum qo'shiqlari yil fasllari haqida — baxor, yoz, kuz haqida kuylangan qo'shiqlardir.

Marosim qo'shiqlariga xalq urf-odatlari haqida kuylangan; tuy, aza marosimlarida kuylanadigan yor-yor, yigi, alla kabilar kiradi.

Mexnat qo'shiqlari amaliy faoliyat bilan boglik bo'lgan ishlar haqida qo'shiqlardir.

Bu turlarni yana uz ichida bulish ham mumkin. Masalan, mexnat qo'shiqlarining kuyidagi turlari ajratiladi:

1. Dexkonchilik qo'shiqlari.
2. Bog, bogdorchilik qo'shiqlari.
3. Chorvachilik qo'shiqlari.
4. Kasb-xunar qo'shiqlari.

Xalq qo'shiqlari yana kuyidagi jihatlar asosida ham farklanishi mumkin: ijrochiga mikdoriy munosabat tomonidan yakka gurux, duet ijrosiga mos qo'shiqlar; sozga munosabat buyicha — sozli, sozsiz.

Fol'klorshunoslikda tarixiy ishk, muxabbat qo'shiqlari tipidagi tematik tasnif ham mavjud. Ulanlar — kelin tushdi (kiz kuchirish) tuylarida kelin-kuyov tomon yigit-kiz orasida xuddi laparlar kabi baxslashuv tarzida bahzan mexmondorchilik utirishlari, bazmlar, gap-gashtaklarda malakali ulanchilar tomonidan tarafkashlik usulida ijro etiladi.

Yor-yorlar «kelin tushdi», «sunnat» tuylarida kelin-kuyov tomon kiz juvonlar, kudalar, kuyovnavkarlar (qiyovning yor dustlari) umuman tuyda ishtirok etuvchilarning uz istak xoxishlari buyicha ijro kilinadi.

«Sunnat» tuylaridagi «kul boglar» tuy kilinayotgan bolaning yoki buvisining maxalla xotinlari ustin yoki daraxtga boglab atrofida «yor-yor» aytishadi. Xotinlarning «yasovuli» kulida ushlab turgan savat yoki tarelkaga tuy kiluvchining karindosh uru'i, yor-birodarlar topganicha pul tashlayveradilar. Oxiri tuy egasi kelib xotinlarga pul berib, rozi kilib, boglangan ayolni ajratib olganda aytildi. Far'ona vodiysidagi o'zbeklar orasida «yor-yor» aytishni bilmaydigan bironta kishi bulmasa kerak. Bu erdag'i tojiklar esa «yor-yor»larini «shox muborak» (qisqacha-shomborak) deb ataydilar. Yor-yor umumxalq kushigi bulishidan tashkari aloxida malakali mutaxasis, so'zga chechan yor-yorchilar tomonidan kuyov-kelin tarafkashlari, tortishuv tarikasida ham aytildi.

Bu tarafkashlikdan asosiy kuyov-kelinga madxiyalar ukilib, ularning yaxshi fazilatlari, xulki, fe'l atvori, Xarakteri hamda ikki yoshning bir-biriga munosibligi maktaladi va ularga baxt-saodat tilanadi. Bahzan kiz tomonidagi yor-yorchilar kuyov tomonini, kuyov tomndagilar esa kelin tomonning bahzi kamchiliklarni hajv kiladilar. Bu engil xazil fakat kuyov-kelin doirasidagina kolmay, tarafkashlik tusini oladi.

Yor-yorning «kelin salom kiladi» («kelinni arava, mashinadan tushirib kuyovnikiga olib ketayotgan payt») kismida esa, yangalar kuyovni ham karindoshlarida, yurtu elining boshlik raxbarlariga kelinni salom kildirayotganda, yor-yorning xazil kayfiyati kuchayadi. Unda engil begaraz xazil, «umor»ning aralashuvi tugilib usgan joyi ota-oni, dugonalaridan ajralib, yangi notanish xonodon sharoitiga kelayotganini uylab yiglayotgan kelinchakni yupatish, kuldirib, kunglini kutarish maksadalari kuzda tutiladi.

Marsiyalar fakat motam yigilaridan iborat bulib, u biror kishi vafot etsa, uning marosimlarida aytildi. Bu marxum yoki marxumaning eng yakin kishilari: ko'prok ona, egachi- singil, oilasi (xotini) farzandlari tomonidan boshlanib tahziyaga yigilgan ayollarning ko'pchiligi unga jur bo'ladi.

Shunisi ham borki, makollarning birida aytiganidek, «Marakaga kelgan xotin uz dardini aytib yiglaydi».

Marsiyalarda marxum yoki marxumaning shaxsiy fazilatlari, ruzg'or va jamiyat orasida tutgan mavkei, tiriklikda kilgan ish-faoliyati eslatilib, unga nisbatan achinish xissi kuzatiladi. marsiyalarda uning aytuvchisiga qarab «Voy bolam» (ona), «voy turam» (xotin), yoki karindoshlik darajasini 6ildiradigan «akam», «ukam», «opam», «jigarim» so'zları radif bulib keladi, bahzan u nakorat sifatida ham takrorlanadi.

Yor-yorchi, ulanchi, qo'shiqlar bo'lganidek, motam marosimlarga aloxida taklif bilan keltiriladigan malakali yigichilar ham bo'ladi.

Marsiyalarning ham uziga xos mungli ohang — kuyi bor. U insondagi ayrilik gam-alamlarini ifodalaydi.

Toglardagi kiyikni, voy akam, Etaklasam yurmaydi, voy akam. Yolgizgina uglingiz, voy akam, Etimlikka kunmaydi, voy akam. qo'shiqlarning ijodkorlari asosan xotin-kizlar bo'lgani uchun ham ularda insonni kamolotga etkazuvchi

mexribon, mushfik, jafokash onalar kalbining zabardast, saxiy, oljanob, aks-sadosi jaranglab turadi. Bu xolatni ayniksa, ona kuylagan allada yakkol kurish mumkin.

Allalar onalarning jigarband farzanlariga kilgan xasratlaridir. kadimda allalar inson mexr-muxabbi bilan siynasi tula onalarning orzu-umid sadolari, vafosiz, zolim erlariga, jafokor zamonga, toshmxr ota-onaga bildirilgan gazab va noroziliklaridan iborat bo`lgan. Ularda katta kalin badaliga sotilgan kiz, churi, kanizak, sevgilisidai zulm bilan ajratilgan mashukani nola-faryodlari eshitilardi. Hozirgi ayollar esa butunlay boshqacha, zamonaviy mazmun kasb etgan.

Allalar onalar, buvilar, opalar — umuman xotin-kizlar tomonidan bola uxlatish paytlarida aytildi. Allalarni boshqa qo`schiqlardan farki shuki, u kachon bulmasin, bola-chakalok, gudak bor xonadonda aytilaveradi.

Laparlar — xalq qo`schiqlarining bu turi asosan yigit-kiz urtasida ijro kilinadi. Bu jihatdan laparlar ulanlarga uxshab ketsalarda, tematika, `oyaviy mazmuni, vazni va engil o`zidagi humor, satira elementlarining o`tkirligi bilan ularndan farq qiladilar.

Laparlar savol-javob tarzida yaratilgan. Bu munozara ishk-muxabbat, ruzgordagi totuvsizlik, ota-onalarning farzandlari bilan bo`lgan munosabatlari kabi xulosalar bahzan engil, bahzan achchik kulgi asosida aks ettiriladi. Xalq qo`schiqlarning laparlar turi ham juda ko`p bulib, ulardagি vazn, kuy-ohang, musikiylik xususiyati ham Har xildir.

OTA

Bozorga boraymi, kizim,
Xonatlas olaymu, kizim?

KIZ

Yuk-yuk, jon dadajon,
Aslo ochilmaydi gulim!

Xalq orasida shartli ravishda «bayt» deb aytaladigan qo`schiqlar turi yangi kuyov-kelinchaklar, yosh-yalang, kiz-juvonlar orasidagina aytildi.

Aruz vaznida aytilan gazal formasidagi shehrlarning ikki misrasi bir bayt deyiladi. Ammo ulardan farkli ularok, bu baytning Har biri kuyovning kelinga, kelinning kuyovga munosabatini ifodalaydigan mustakil asardir.

Kuyov

Qiyo-qiyo deganda, kiyalab turgan kelinchak
Kultigining taglaridan muralab turgan kelinchak.

Kelinchak

Qiyo-qiyo deganda, qiyildim sizga,
Qizil gulning navdasidek egildim sizga.

Bolalar qo`schiqlarining uziga xos qisqa, engil vazni, shux-wynoki, musikiyligi bor. Bu qo`schiqlarning deyarli ko`pchiligi 2k3k5 turoqli barmok vaznida yaratilgan bo`ladi.

Sergak kuyovim
Oydinda kochgan.
Andijon molin
Yasavul ochgan.

Xullas, xalq yaratgan qo`schiqlarning hamma turida yuksak, oliy janob `oya ixcham, chiroqli, sodda, badiiy shakllarda ifodalangandir. Ularni kuylash, tinglash va

ukish kishiga bitmas-tuganmas zavk bagishlaydi. Xavaskor ashulachilardan tortib atokli sanhatkorlarimizgacha xalq qo'shiqlarini tez-tez ijro etib turishlarining ham sababi ham shunda.

Shunday kilib, xalq qo'shiqlari xalq tomonidan yaratilgan kuy va ohangda kuylashga xoslashgan o'zaki ijod namunalaridir. Aytilish o'rni barkaror ayni paytda, eski bo'lган qo'shiqlarning ichki turlari ham xilma-xil: mavsum, marosim, urf-odat, mexnat qo'shiqlari kabi turlar, kattalar va bolalar qo'shiqlari deb ataluvchi turlar ana shu xillarni ko'rsatadi.

Nazorat savollari:

1. Qo'shiq haqida ma'lumot
2. Xalq qo'shiqlari va professioanl ashulachilik
3. Xalq qo'shiqlarining janr xususiyatlari.
4. Mavsum qo'shiqlari
5. Marosim qo'shiqlari
6. Mexnat qo'shiqlari
7. Xalq qo'shiqlarining ijro usuli
8. Lapar haqida
9. Termalar
10. Qo'shiq poetikasi

Adabiyotlar:

1. X.Razzokov, T.Mirzaev, O.Sobirov, K.Imomov. O'zbek xalq o'zaki poetik ijodi. Toshkent, 1980.
2. T.Mirzaev va boshqalar. O'zbek xalq o'zaki poetik ijodi. Toshkent, 1980.
3. N.Xatamov, B.Sarimsokov. Adabiyotshunoslik terminlarining ruscha-o'zbekcha lugati. Toshkent, 1979.
4. X.Razzokov. O'zbek xalq qo'shiqlari. Gulyor. T, 1967.
5. K.Ochilov. Mexnat qo'shiqlari haqida. «Boychechak», T., 1984.
6. O. Safarov. Bolalik kuylasa — olam munavvar. «Boychechak», T., 1984 yil.

8-mavzu: ERTAK.

Reja:

1. Ertak haqida ma'lumot.
2. Janr xususiyatlari.
3. Ertak tasnifi.
4. Xulosa.

Tayanch atamalar: ertak; sayyor
syujet; majoziy; se'rli; 'ayotiy-maishiy;
'ajviy; satirik; humoristik; .

MUAMMOLAR:

Ertak xalq og'zaki ijodidagi badiiy prozaning namunasi sifatida. Ularda mehnatkash xalq hayoti, orzu-istiklari, psixologik dunyosining aks etishi. Ertaklarning sotsial mazmuni.

